

# BOBUR KUTUBXONASI

MA'NAViy - MA'RIFIY JURNAL · ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ



3/2025

ISSN 2181-3280

34  
YIL  
MUSTAQILLIK






- 3-bet ► Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tendentsiyalari
- 13-bet ► “Yangi Andijon – Bobur shahri” g‘oyasining mohiyati va bugungi yoshlar siyosatidagi o‘rni
- 17-bet ► Turkiy marjon shodasi
- 40-bet ► O‘zbekiston kitobxonlar yurti



*«Sizlarni, butun ko'p millatli xalqimizni, xorijdagi vatandoshlarimizni O'zbekiston mustaqilligining shonli sanasi — 34 yilligi bilan chin qalbimdan tabriklayman.*


*... Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi asosida boshlangan keng ko'lamli islohotlar tufayli bugun har bir yurtdoshimiz mustaqillik bizga bergan huquq va erkinliklarni amalda his etmoqda va ulardan keng foydalanmoqda».*

**SH.MIRZIYOYEV**





**Bobur nomidagi Andijon viloyati  
axborot-kutubxona markazi**



# **B**OBUR KUTUBXONASI

Ma'naviy-ma'rifiy jurnal

№ 3 (8) 2025

Axborot-kutubxona markazi tomonidan  
2022 yildan nashr qilinmoqda.

Har chorakda chop etiladi  
-o'zbek, rus va ingliz tilida

### **Tahrir kengashining raisi**

G. Ismailova

### **Muharrir**

O. Axunjanova

### **Texnik muharrir**

I. Muxtarov

### **Kengash a'zolari**

U. Teshabayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

N. Kosimova - professor, psixologiya fanlari  
nomzodi, dotsent.

B. Yarkinova - filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent.

S. Mamajonov - tarix fanlar nomzodi, dotsent

---

Духовно-просветительский журнал

Издаётся Андижанским областным инфор-  
мационно - библиотечным центром имени  
Бабура с 2022 года

Выходит ежеквартально  
на узбекском, русском, английском языках.

### **Председатель редакционного Совета**

Г. Исмаилова

### **Редактор**

O. Axunjanova

### **Технический редактор**

I. Muxtarov

### **Члены Совета**

У. Тешабаева — доктор философских наук  
по истории (PhD)

Н. Косимова — профессор, кандидат  
психологических наук, доцент.

Б. Яркинова — кандидат филологических  
наук, доцент.

С. Мамажонов - кандидат исторических  
наук, доцент.

# MUNDARIJA

## YANGI O‘ZBEKISTON YO‘LIDA

### Adxamjon Uzakdjanov

Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tendentsiyalari.. 3

### Mustakimova Muhayyo

Bola huquqlari davlat himoyasida..... 7

### Qo‘chqarboy Xakimov

“Yangi Andijon – Bobur shahri”  
g‘oyasining mohiyati va bugungi yoshlar siyosatidagi o‘rni..... 14

## KUTUBXONA VA SUN‘IY INTELLEKT

### Odinaxon Rasulova

Turkiy marjon shodasi..... 17

### Shoxidaxon Shokirova

XXI-asr bibliografining vazifasi..... 21

## AXBOROT-TEXNOLOGIYA VA KUTUBXONA

### Muborakxon Isoqova

Axborot-texnologiyalari orqali o‘qish madaniyatini tarbiyalash..... 28

## ANDIJON ADABIY PANORAMASI

### Vosit Ahmad

Tomchida quyosh aksi..... 32

### Farid Usmon

Ijodkorning o‘z so‘zi bo‘lsa..... 35

### Ольга Ахунжанова

О поэте и поэзии..... 37

## ANDIJONDA KITOBXONLIK HAFTALIGI

### Umida Kadirova

O‘zbekiston kitobxonlar yurti..... 40

### Mamatkulov Asadullox

Стихи..... 46

## ANDIJONLIK MASHXURLAR

Andijonlik Vitse-Admiral..... 48

Jurnal 2021 yil 17 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 1212 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda «Bobur kutubxonasi» ma‘naviy-ma‘rifiy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Bosmaxonaga 25.09.2025 yilda berildi.  
Bosishga 30.09.2025 yilda ruxsat berildi.  
Qog‘oz formati 60x84 1/8.  
Nashriyot hisob tabog‘i 6,5.  
Adadi 50 dona.

Jurnal «BIZNES POLIGRAF» M.CH.J bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani  
Katta qozirobod 65-uy.  
Tel: +99891 135-76-73

### **ALOQA UCHUN MA‘LUMOT:**

Manzil: Andijon sh.,  
A.Fitrat ko‘chasi, 232-uy.  
Tel.: 74-223-79-80  
Veb-sayt: jurnal.libbobur.uz  
Telegram: t.me/andakmbot  
Veb sayt: andijan.natlib.uz

## MUSTAQILLIK YILLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI



**ADXAMJON UZAKDJANOV**

Demokratik jarayonlarni  
tahlil qilish markazi  
Andijon viloyati hududiy  
bo‘linmasi bosh mutaxassisi

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные тенденции развития институтов гражданского общества в Узбекистане в годы независимости. Анализируется роль неправительственных некоммерческих организаций и средств массовой информации в формировании открытого гражданского общества, укреплении демократических процессов и обеспечении общественного участия в управлении государством. Особое внимание уделяется правовой базе, созданной для поддержки гражданского общества, включая принятие более 200 нормативно-правовых актов, а также реализации стратегических документов и государственных программ. Отмечается рост количества ННО и негосударственных СМИ, расширение их участия в социально значимых проектах и развитии общественного контроля. Также освещается опыт Андиджанской области в реализации грантовых проектов, развитии международного сотрудничества и поддержке общественных инициатив. В заключение подчеркивается важность дальнейшего укрепления финансовой устойчивости, прозрачности и эффективности деятельности институтов гражданского общества для устойчивого и демократического развития Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** гражданское общество, неправительственные некоммерческие организации (ННО), средства массовой информации, общественный контроль, социальное партнёрство, демократические реформы, Новый Узбекистан.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy davlatchilik asoslarini yaratish bilan bir qatorda, xalq manfaatlarini ifodalovchi ochiq fuqarolik jamiyati poydevorini qurishdek murakkab va tarixiy vazifa kun tartibiga qo'yildi. Bu ulug'vor maqsadga erishishda ikki muhim institut-fuqarolik jamiyati tashkilotlari hamda erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi o'rin tutadi.

Bugungi kunga kelib ushbu tuzilmalarning rivojlanishi va o'zaro munosabatlari mamlakat demokratik qiyofasini, islohotlar xalqchilligini belgilab beruvchi asosiy mezonga aylandi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda "Jamiyat – islohotlar bosh tashabbuskori" shiori ostida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, "Yangi O'zbekiston"ni barpo etish borasidagi sa'y-harakatlar "uchinchi sektor" ga mansub tashkilotlar o'zni, roli va mavqeini yanada oshirishga xizmat qildi.



Endilikda ular shunchaki alohida faoliyat yurituvchi tuzilmalar emas, balki jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun bevosita dahldor bo'lgan muhim ijtimoiy sherik sifatida maydonga chiqmoqda.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular sohaning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.



Bu davrda qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlar, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi kabi hujjatlar fuqarolik jamiyati institutlari va OAVlarining jamiyatdagi roli va nufuzini oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, birlashish erkinligi kabi tamoyillarning mustahkamlab qo'yilishi NNTlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi.



Keyingi yillarda jamoat tashkilotlarining son va sifat tarkibi ham birmuncha yaxshilanishiga erishildi.

Ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillik yillarida O'zbekistonda ro'yxatdan

o‘tgan NNTlar soni atigi 195 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib ularning soni 10 ming 400 dan oshdi.

OAV sifatida davlat ro‘yhatidan o‘tgan sub’ektlar soni 2 ming 200 tani tashkil etib, ularning 65 foizdan ortig‘i nodavlat OAV ulushiga to‘g‘ri keladi.



Bugungi kunda Andijon viloyatidagi 600 dan ziyod NNTlar, 30 ga yaqin bosma va elektron OAV ijtimoiy hayotning turli sohalarida – aholining huquqiy savodxonligini oshirishdan tortib, ekologik muammolarni hal etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashgacha bo‘lgan keng yo‘nalishlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Shu o‘rinda internet-jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi axborot almashish tezkorligi, fikrlar xilma-xilligi va davlat organlari faoliyati ochiqligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etayotganini ham alohida ta‘kidlab o‘tish joiz.

Binobarin, davlat rahbarining 2024-yil 26-avgust kuni qabul qilingan “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-124-son Farmonida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan asosiy yo‘nalish va muhim vazifalar aniq belgilab berildi.

Qolaversa, NNTlarni davlat granti, subsidiya va ijtimoiy buyurtma shaklida qo‘llab-quvvatlash

hajmining oshishi, ular faoliyati uchun hududlarda “NNT uylari” kabi infratuzilmaviy sharoitlarning yaratilishi hamda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari rolining kuchayishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolatdir.



Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tish kerak, keyingi 2 yil ichida viloyatdagi fuqarolik jamiyati institutlarining 11 ta muhim ijtimoiy ahamiyatli loyihasi Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan jami 1 mlrd 185 mln so‘mga moliyalashtirilgan.

Joriy yilda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi va uning Andijon viloyati bo‘linmasi tomonidan e‘lon qilingan grant tanlovida viloyat bo‘yicha 10 ta loyiha g‘olib deb topilib, jami 1 mlrd 243 mln so‘mga qo‘llab-quvvatlandi.

Shuningdek, viloyatdagi milliy-madaniy markazlar faoliyati 2023-yilda 60 mln so‘m, 2024- yilda 224 mln so‘mga moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2025 yilning shu davriga kelib 119 mln so‘mga subsidiya shaklida qo‘llab-quvvatlangan.

Keyingi yillarda viloyatda faoliyat yuritayotgan NNTlarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ko‘lami birmuncha kengaydi.

Chunonchi, o‘tgan yillar davomida viloyat bo‘yicha faqat bitta - “Mehrimiz Sizga” NNT xorijiy grant loyihasida ishtirok etgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib 10 ta, jumladan 3 ta o‘z tashabbusi bilan tashkil etilgan jamoat tashkiloti 15 ga yaqin xalqaro tashkilotning xorijiy grant mablag‘lari jalb etilishida qatnashgan.



Ushbu muhim ijtimoiy ahamiyatli loyihalar asosan qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, kasb-hunarga o'qitish, yoshlar faolligini oshirish, odam savdosi va norasmiy tashqi mehnat migratsiyasini oldini olish yo'nalishlarida amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida jiddiy ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda.

Endilikda ushbu institutlarning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini amalda to'liq ta'minlashga o'tish jarayonini yanada jadal-lashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Bu esa, o'z navbatida, NNTlar faoliyati ochiq-ligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, joylarda uchrayotgan turli byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, samarali ijtimoiy sheriklik hamda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish

orqali NNTlar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi ishtirokini yanada faollashuvini taqozo etmoqda.

Shunday ekan, fuqarolik jamiyati va OAVning mustahkam hamkorligi adolatli, inson qadri ulug' bo'lgan, xalqchil va barqaror taraqqiy etadigan O'zbekistonning mustahkam poydevoridir.

Ushbu imkoniyat va salohiyatni to'laqonli ro'yobga chiqarish, uni yangicha mazmun bilan boyitish nafaqat davlat, balki butun jamiyat umumiy manfaatlari yo'lidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lmog'i lozim, deb hisoblaymiz.

Barcha yurtdoshlarimiz, shuningdek, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" ezgu tamoyil asosida fidokorona mehnat qilayotgan ko'p ming kishilik jamoat tashkilotlari yetakchilariga Mustaqillikning 34 yillik shodiyonasi muborak bo'lsin!



## BOLA HUQUQLARI DAVLAT HIMOYASIDA



**MUSTAKIMOVA MUHAYYO**

**Z.M.Bobur nomidagi Andijon viloyati  
axborot-kutubxona markazi  
Axborot-bibliografiya xizmati  
bosh mutaxassisi**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются реформы Нового Узбекистана по созданию гуманного правового государства, где приоритетом является защита прав человека. Особое внимание уделено совершенствованию законодательства в сфере защиты прав детей и женщин, в частности, на основе новой редакции Конституции и Указа Президента от 3 марта 2026 года. Анализируется деятельность Детского омбудсмана, механизмы искоренения детского труда и внедрение системы инклюзивного образования. Подчеркивается переход от борьбы с последствиями насилия к его системной профилактике на уровне махалли и семьи.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, права ребенка, Конституция, защита женщин, Детский омбудсмен, профилактика насилия, инклюзивное образование, социальная защита, правовые гарантии.

Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlash va ularni ijtimoiy himoya qilishdir. Insonni ulug‘lash, uning huquq va qonuniy

manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda bosh omil qilib olinayotgani buning yorqin misolidir.

Haqiqatan ham, bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida yurtimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash borasida shiddatli va

tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Insongabo'lgane e'tibor, birinchi o'rinda bolaga bo'lgan e'tibordan boshlanadi. Aynan shuning uchun ham so'nggi yillarda O'zbekistonda bolalar majburiy mehnatga barham berilishi, Xalqaro mehnat tashkilotining majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya va uning bayonnomasi O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinganligi, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan kafolatlarni kuchaytirish yuzasidan qonun hujjatlari takomillashtirilganini jahon hamjamiyati ijobiy e'tirof etmoqda.

2026 yil 3 martda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida»gi farmon ana shu sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Mazkur hujjatga binoan, bir qator muhim vazifalar belgilandi. Eng avvalo, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini barvaqt aniqlash, ularning oldini olish va jabrlanganlarga kompleks yordam ko'rsatish tizimi yanada takomillashtiriladi. Zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni himoya qilish mexanizmlari kuchaytiriladi, profilaktik ishlar mahalla darajasida yanada tizimli tashkil etiladi, psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam xizmatlari kengaytiriladi. Shuningdek, ayollar va bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat organlari hamkorligi kuchaytiriladi. Mahalla, ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib, jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Hujjatning ahamiyati faqat huquqiy choralar bilan cheklanmaydi. U zo'ravonlikka qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqadi. Ilgari asosan sodir bo'lgan holatlarga huquqiy baho berilgan bo'lsa, endi profilaktika, ya'ni muammoning ildizini bartaraf etishga katta e'tibor qaratiladi, oqibat bilan emas, sabab bilan kurashiladi. Bu esa har bir oilada sog'lom muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Bola huquqlari xalqaro to'g'risidagi konvensiya**

O'zbekiston istiqbolga erishgach, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mintaqasida birinchilardan bo'lib "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyani 1992-yil 9-dekabr kuni ratifikatsiya qildi. Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar asosiy huquq va erkinliklarini belgilovchi hujjat – bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan va 1990-yil 2-sentyabrda kuchga kirgan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyadir.


Konvensiya ustida taxminan 10 yil ishlandi va nihoyat 1989-yil 20-noyabr kuni Bola huquqlari deklaratsiyasining 30 yilligi sanasida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya ma'qullandi. Konvensiyaning asosiy g'oyasi – bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash bo'lsa, uning qoidalari bolalar huquqlarini ta'minlashi kerak bo'lgan 4 ta asosiy talabga jamlangan. Omon qolish, rivojlanish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilish bilangina cheklanmadi. Hozirgi kunga qadar "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli fakultativ protokol (Nyu-York, 2000-yil 25-may) va bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokolni (Nyu-York, 2000-yil 25-may) ham ratifikatsiya qildi.

Konvensiya 54 ta moddadan iborat bo'lib, unga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi. Va nihoyat, 2008-yilda O'zbekiston parlamenti tomonidan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunning 1-moddasida bolaga tushuncha berilgan. Ya'ni, unga ko'ra bola (bolalar) o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs. Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi,

ijtimoiy mavqeidan qat’iya nazar, har bir bola ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquq va erkinlikdir, xalqaro huquqda 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola, deb tan olinadi.



### **Bolaning huquq va erkinliklari yangi Konstitutsiya himoyasida**

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, u Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bu borada bolaning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash va kafolatlash yangi Konstitutsiyada mustahkamlanishi, bu masala davlat darajasiga ko‘tarilganligini yaqqol isbotidir. Jumladan, Bosh

qomusimizning 44-moddasiga asosan bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta‘lim olishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi.


Shuningdek, ilk bor Konstitutsiyaning 50-moddasida ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanishi alohida mustahkamlandi. Eng muhimi. yangi Konstitutsiyaga oila, bolalar, yoshlar deb nomlangan yangi bob kiritilib, unda bolalarning maqomi yanada kuchaytirildi.

Xususan, Bosh qomusimizning 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Mazkur moddada davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta‘lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta‘minlanishi ham belgilab qo‘yilgan.

Asosiy qonunimizning 78-moddasida esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi alohida ko‘rsatilgan.

Mamlakatimizda bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni doimo qo‘llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilishga davlat siyosati darajasida katta e‘tibor qaratilayotgani bejis emas. Chunki yurtimizda bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz vorislari sifatida qadrlanib, mamlakatning katta xazinasini hisoblanadi.

Agar bolalarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi va orzu intilishlarini ro‘yobga chiqarishga zarur sharoitlar yaratilsa, ularda oldinga intilish, harakat bo‘ladi. Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgan ushbu yangiliklar shubhasiz, farzandlarimizning har jihatdan sog‘lom, hur fikrli avlod sifatida kamolga yetishishiga xizmat qiladi.



### **Inson huquqlari bola huquqlarini ta'minlashdan boshlanadi**

O'zbekiston bolaning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarni va shu asosda qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashda bosqichma-bosqich, tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yildan boshlab, davlatning bu boradagi faoliyati tubdan o'zgardi. Chunki, endilikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar "Inson manfaati hamma narsadan ustun" degan tamoyilni amalda ro'yobga chiqarishga qaratildi. Bunga quyidagi misollar keltirish mumkin.

Masalan, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 22-apreldagi tegishli qarori bilan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash,

ularning jismoniy, intellektual va ma'naviy yetuk avlod bo'lib yetishishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi tashkil etildi.

Shuningdek, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish maqsadida 2020 yil 29 may kuni "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatda bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari aniq belgilab berildi.

Prezidentimizning 2021 yil 9 avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari — Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi tugatilib, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti ta'sis etildi.

#### **Ushbu farmon bilan:**

Birinchidan, bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshirishi, o'z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdor ekanligi;

Ikkinchidan, Bola huquqlari bo'yicha vakil Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanishi;

Uchinchidan, Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritilishi mustahkamlandi.

Bola huquqlari bo'yicha vakilga — bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishining oldini olish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya

muassasalari va tarbiya koloniyalari faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish vakolati berildi.

### **Bola huquq va erkinliklari qonun himoyasida**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bolaning huquqvaerkinliklaridamdaqonuniymanfaatlarini kafolatlash va ta‘minlash qonunchilikda o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, 2020-yilda parlament tomonidan “Bola huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan bir qator qonunlarimizga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.



Jumladan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) yoki otaning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaga

ta‘minot, tarbiya, va ta‘lim berish bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yohud ota-onalik huquqlarini suiiste‘mol qilganda bola o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli ekanligi hamda bunday murojaat bola to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmaganligi sababli ko‘rib chiqmasdan qoldirishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Qonunning 15-moddasining matni esa oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma‘muriy muhokama jarayonida so‘zlashga haqli ekanligi belgilanib, bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat‘iy nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi to‘g‘risida tahrir qilindi.

Oila kodeksining 68-moddasi qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat‘iy nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerakligi to‘g‘risida yangi mazmundagi jumla bilan to‘ldirildi. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga esa voyaga yetmagan shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari deb nomlangan yangi 241-modda kiritildi.

Mazkur moddaga binoan voyaga yetmagan shaxslar o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga ushbu qonunda belgilangan tartibda mustaqil ravishda murojaat berishga haqli ekanligi belgilangan.

Shu bilan birga, mazkur moddada davlat organlari, tashkilotlar yoki ularning

mansabdor shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning murojaatlarini ko'rib chiqish uning qonuniy vakillari, shuningdek vasiylik va homiylik organlari ishtirokida amalga oshirilishi mumkinligi hamda voyaga yetmagan shaxslar to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagani sababli ularning murojaatlarini ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlangan.

Joriy yilning aprel oyida «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, bolaning huquq va erkinliklari yanada kuchaytirildi.

Ushbu qonun xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

### **Bola huquqlari bo'yicha vakil to'g'risida qonun loyihasi**

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash maqsadida 2023-yil 8-may kuni Prezidentimizning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmonda Oliy Majlis palatalariga

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, bolaning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'liq rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qilish tavsiya etilgan.



Mazkur qonun loyihasida Bola huquqlari bo'yicha vakilning maqomi, uning huquqlari, majburiyatlari, vazifalari va vakolatlari hamda Bola huquqlari bo'yicha vakilning davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro munosabatlari belgilanmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha vakilga davlat organlari va barcha mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari hamda bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshirishi belgilanmoqda.

Hozirgi kunda Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi tomonidan mazkur qonun loyihasi ikkinchi o‘qishga tayyorlanmoqda. Ushbu qonuning qabul qilinishi bilan O‘zbekistonda bolaning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolatlari kuchayadi. Bola huquqlari bo‘yicha vakil, unga qonun bilan berilgan vakolat doirasida bolaning konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishga va ularni amalda ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan tegishli tashkilotlarning faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini o‘rnatishga xizmat qiladi.

Inson huquqlari tizimida bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan bolalarning huquqlari, ular o‘rtasida nazoratsozlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish choralari takomillashtirildi.

Ma‘lumki, mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilish borasida 30 dan ziyod normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Yetimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yuvenal adliya tizimini shakllantirish va bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash kabilar O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilab berildi.

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashda prokuratura organlari bir qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bolalarni e‘tiborsiz qoldirmaslik, turli zo‘ravonliklardan himoya qilish maqsadida YUNISEF va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda videoroliklar tayyorlanib, ommaviy axborot vositalarida yoritilib kelinmoqda. Bundan tashqari mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari bitiruvchilarining uy bilan ta‘minlanishi o‘rganilib, bu boradagi

muammolar bartaraf etilmoqda.

Davlat bolani zo‘ravonlikning barcha shakllari, shu jumladan jismoniy, ruhiy zo‘ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo‘pol, inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan himoya qiladi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik qilish uning huquqiy oqibatlariga ko‘ra ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Prezidentimizning “Ayollar va bolalarga qo‘l ko‘targan yo O‘zbekistondan ko‘chib ketadi yo qonun asosida yashashga majburladi”, degan qat’iy fikrlari ayol va bola huquqlarini ta‘minlash borsida davlatimizning prinsipial pozitsiyasini ko‘rsatib berdi

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Бола ҳуқуқларининг кафолатларини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” // Халқ сўзи. 2021. – 10 авг.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” // Халқ сўзи. –2022. –29 янв.

3. Аёл ва бола ҳуқуқлари – давлат ҳимоясида : [муносабат] // Жамяят. – 2026. – 14 март. – Б. 3.

4. Мўминов, А. Бола ҳуқуқлари [Матн] : илмий –маърифий нашр / А. Мўминов [ва бошқ]. – Тошкент : Nurafshon business, 2020. – 472 б.

5. Тиллабоев А. Болаларнинг ижтимоий-ҳуқуқий ҳимояси масалалари. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2010. №2



**QO'CHQARBOY HAKIMOV**

UNIEP NOTM  
O'zbekvarustillarikafedrası  
v.b.dosenti f.f.n.

## **“YANGI ANDIJON – BOBUR SHAHRI” G'OYASINING MOHIYATI VA BUGUNGI YOSHLAR SIYOSATIDAGI O'RNI**

**Аннотация:** Реформы, проводимые в Узбекистане, проявляются как комплексная политика, направленная на обновление государственного управления, регионального развития и общества в целом. В частности, важной задачей стало гармоничное сочетание экономического роста с духовно-идеологическим содержанием в развитии регионов. И в этом направлении инициатива по развитию города Андижана на основе концепции «Новый Андижан – город Бабура» имеет особое стратегическое значение. Эта идея не просто символическое решение, связанное с именем исторической личности, но и системный подход, направленный на укрепление национальной идентичности в современной государственной политике, повышение общественного духа и усиление патриотической идеологии в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** государственное управление, развитие регионов, национальная идентичность, патриотическая идеология.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar davlat boshqaruvi, hududiy taraqqiyot va jamiyat ongini yangilashga qaratilgan kompleks siyosat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, hududlarni rivojlantirishda iqtisodiy o'sishni ma'naviy-mafkuraviy mazmun bilan uyg'unlashtirish muhim vazifaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, Andijon shahrining “Yangi

Andijon – Bobur shahri” konsepsiyasi asosida rivojlantirish tashabbusi alohida strategik ahamiyatga ega.

Zero, buyuk bobomiz Z.M. Boburning dunyoga mashhur bo'lgan “Boburnoma” memuar asarida Andijon tabiati, shahar qurilishi, sug'orish inshootlari, dehqonchilik va savdo madaniyati, insonlari, turmush tarziga

bag‘ishlangan “Andijon ta‘rifi” deb nomlangan alohida qism mavjudligi uning tug‘ilib o‘sgan yurtiga muhabbatidan, garchi Hindistonda buyuk imperiya tuzgan hukmdor bo‘lsa-da, umri davomida Andijon yodi bilan yashaganligidan, yurtini kelajakda farovon mamlakat bo‘lishini chin dildan orzu qilganligidan dalolat beradi.

Nazarimizda Yangi Andijonning Bobur shahri deb nomlanishi buyuk bobokalonimiz Z.M. Boburning armonlarini ro‘yobga chiqarganday bo‘lmoqda, desak ayni muddao bo‘lar edi.

“Yangi Andijon – Bobur shahri” g‘oyasi faqat tarixiy shaxs nomi bilan bog‘liq ramziy qaror emas, balki zamonaviy davlat siyosatida milliy o‘zlikni mustahkamlash, jamoatchilik ruhiyatini yuksaltirish va yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik mafkurasini kuchaytirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir.


Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va hududiy rivojlanish modeli asosida Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning hududlarni kompleks rivojlantirish siyosatiga to‘liq mos kelishi bilan tafsiflanadi. Bunda iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy barqarorlik va aholi

farovonligini oshirish o‘zaro bog‘liq vazifalar sifatida qaralayotganligi ayni muddao sifatida belgilanganligi ko‘rinadi.

Sanoatni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani modernizatsiyalash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali Andijon viloyati yildan-yilga iqtisodiy jihatdan barqaror hududga aylanib bormoqda. Biroq bu jarayonda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, aholi ongida islohotlarga nisbatan ishonch va daxldorlik hissini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi sir emas.

Aynan shu yerda “Yangi Andijon – Bobur shahri” g‘oyasi ijtimoiy-siyosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda eng asosiy jihat Bobur shaxsiyatining davlatchilik va milliy mafkura ramzi sifatida belgilanishidir.

Ma‘lumki, Andijon farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiy shaxs sifatida nafaqat harbiy yoki adabiy-badiiy meros qoldirgan, balki kuchli davlatchilik tafakkuri sohibi bo‘lgan. Shu bois uning nomi adolat, qat‘iyat, bilim va Vatan taqdiri uchun mas‘uliyat tushunchalari bilan uzviy bog‘liq.



Yangi Andijon shahrini Bobur nomi bilan ulug'lash orqali davlat siyosatining muhim maqsadi — zamonaviy rivojlanishni milliy ruh, tarix va mafkura bilan uyg'unlashtirishga erishiladi. Bu esa jamiyatda “islohotlar — bizning tarixiy davomiyligimiz” degan g'oyani mustahkamlaydi.

“Yangi Andijon – Bobur shahri” konsepsiyasi — bu faqat zamonaviy arxitektura yoki shaharsozlik loyihasigina emas, balki yashash muhitini hamda zamondoshlarimiz dunyoqarashini tubdan o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy konsepsiyadir. Zamonaviy yo'llar, uy-joylar, ta'lim va tibbiyot muassasalari, dam olish va ko'ngilochar jamoat maskanlarining barpo etilishi aholining davlat siyosatiga nisbatan munosabatini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi.

Infratuzilmani rivojlantirish va qulayliklar yaratish orqali davlat aholiga islohotlar inson manfaati uchun amalga oshirilayotganligi to'g'risida aniq signal yuboradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolar faolligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Andijon viloyatidagi islohotlarning muhim jihati — hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotning kuchayishidir. Viloyat hokimligi tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar aholining bevosita ishtirokini nazarda tutadi. Bu esa jamoatchilik ongida “davlat — jamiyat uchun” degan qarashni shakllantiradi hamda jamiyatda yashovchi har bir shaxsda daxldorlik xis-tuyg'ularini oshiradi.

Xolis kuzatuvchi sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda viloyat aholisi orasida Bobur shaxsiyati atrofida shakllanayotgan umumiy ma'naviy ruh jamoatchilikni birlashtiruvchi omilga aylanmoqda. Bu holat pirovard natijada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Sir emaski, davlat siyosatida yoshlar masalasi strategik ahamiyatga ega. “Yangi Andijon – Bobur shahri” g'oyasi yoshlar tarbiyasida kuchli mafkuraviy vosita sifatida xizmat qilishi shubhasiz. Shu boisdan Bobur obrazi orqali yoshlarga davlatchilikka sadoqat,

faol fuqarolik pozitsiyasi va milliy g'urur tuyg'ulari yanada mustahkamroq singdirilishi bosh maqsad qilinishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy merosga bag'ishlangan loyihalar yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmasligini ta'minlab, ularni Vatan taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi kuchga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi Andijon – Bobur shahri” konsepsiyasi bugungi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim mafkuraviy tarkibiy qismi hisoblanadi. U iqtisodiy taraqqiyot, infratuzilmaviy rivojlanish, jamoatchilik ruhiyati va yoshlar tarbiyasini yagona strategik maqsad atrofida birlashtiradi.

Bu esa barpo etilayotgan Yangi Andijon – Bobur shahrini nafaqat zamonaviy, balki ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan fozil insonlar shahri sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.



## Turkiy marjon shodasi



**ODINAXON RASULOVA**  
**Z.M.Bobur nomidagi Andijon viloyati**  
**axborot-kutubxona markazi**  
**Axborot-bibliografiya xizmati Huquqiy**  
**axborotlar sektori mudiri**

**Аннотация:** В статье автор делится своими впечатлениями о научно-практическом содержании IV Международного библиографического конгресса, прошедшего в 2025 году в Якутии. Рассматриваются новые парадигмы библиографической науки, процессы цифровой трансформации и изменения в области библиографического сохранения культурного наследия. Освещаются глобальные тенденции в сфере библиографии и библиотечного дела, стандарты метаданных, интеграция искусственного интеллекта в библиографическую деятельность, а также подходы к документированию регионального и этнического наследия. Подчеркивается роль конгресса в развитии международного сотрудничества, информационной грамотности и библиографической культуры.

**Ключевые слова:** библиография, IV Международный библиографический конгресс, цифровизация, искусственный интеллект, культурное наследие, библиотечное дело, каталогизация, языковое разнообразие.


Yakutiya (Saha Respublikasi) Evroosiyo qit'asining shimoliy sharqida joylashgan bo'lib, keng maydonga ega hududlardan hisoblanadi. O'zining noodatiy iqlim sharoitlari va tabiiy er osti, usti boyliklari bilan dunyo ahlini hayratlantirib keladi. Maqolani yozish avvalida bu mamalakatning ajoyib tabiati haqida so'z yuritishimiz zarur. Dunyoda daryolarga (700 000 ta daryo va soylar) va ko'llarga eng boy (800000 dan ortiq) mintaqalaridan biri hisoblanadi. Mamalakat tabiati go'zalligi ham o'ziga xos. Saha Respublikasining katta qismi o'rta tayga zonasida joylashgan bo'lib, shimolda

o'rmon-tundra zonalariga yo'l ochadi. Bepoyon muzliklar va o'rmonlar, haybatli tog' tizmalari, boy tabiati inson ko'zini quvontiradi.

Abadiy muzliklar ustida joylashgan mamlakat kundan kunga har tomonlama rivojlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'taman.

Shu yilning 16-19-sentyabr kunlari Saha Respublikasida Yakutiya Milliy kutubxonasining 100 yilligi arafasida IV- xalqaro bibliografik kongressi gibrid shaklida bo'lib o'tdi. Kongress Yakutiya Milliy kutubxonasi, Rossiya kutubxonachilar assosiyasi, Rossiya davlat kutubxonasi, Rossiya Milliy kutubxonasi,

Rossiya fanlar akademiyasi kutubxonasi, B.N.Elsin nomidagi Prezident kutubxonasi, M.I.Rudomino nomidagi horijiy adabiyotlar davlat kutubxonasi, Rossiya davlat bolalar kutubxonasi, Arktika davlat madaniyat va san'at instituti hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, Rossiyaning 84 ta hududlari va 16 ta mamlakatlaridan mutaxassislar ishtirok etdilar.



Tashkilotchilar barcha jarayonlarni eng muqobil usulda tashkil etganliklari sababli, qatnashchilar uchun qiziqarli bo'ldi. O'tkazilgan barcha seksiyalar, master klasslar, ekskursiyalar, tadbirlar bugungu kunga dolzarb mavzularni qamrab olgan edi.



Saha Respublikasi milliy kutubxonasi xodimlari, ma'sul insonlar tomonidan jonkuyarlik bilan o'tkazilagan tadbirlarni hayajon bilan eslayman, ularni mehmondo'stligi, oliyanoblighi aynan turkiylarga xos bo'lgan xislatlarini ko'rib, o'z yaqinlarimiznikiga mehmonga kelgandek edim. Eng shimoliy mintaqada yashovchi turkiy xalqlardan biri bolgan insonlarning o'z merosi, bitiklari, milliy madaniyati, tili va an'analarni saqlash darajasi ham diqqatga sazovor. Saha Respublikasida olib borilayotgan islohotlarda xalqning matonati, donoligi va boy madaniy merosiga bo'lgan chuqur hurmati aks etadi.

**Kongress mavzusi:** "Dunyo xalqlarining madaniy merosi va til xilma-xilligini saqlashda bibliografiya".



**Kongressning ilmiy-amaliy mazmuni sohaga oid quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:**

-Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt asosida bibliografiyani rivojlantirishning dolzarb savollari.

-Raqamlashtirish jarayonuda kutubxonalar va bibliografiya faoliyatini rivojlantirish.

-Bibliografiyada smart-texnologiya va sun'iy intellekt.

-Xalqaro bibliografik hamkorlik.

-Mamlakatlar va xalqlar madaniy merosini saqlashda bibliografiyaning o'rni. Milliy bibliografiya.

-Hududning madaniy merosini rivojlantirishda bibliografiyaning imkoniyatlari. O'lkashunoslik bibliografiyasi.

-Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, kelajak avlod uchun ko'p tillilikni saqlab qolish.

-Shimol va Uzoq Sharq mahalliy xalqlarining hujjatli merosini saqlash, tadqiq etishda bibliografiya.

-Arktika kutubxonalarining Uzoq Sharq, Shimol va Sibir xalqlarini madaniy merosi hamda til xilma-xilligini saqlashdagi faoliyati.

-Kitob yodgorliklari: madaniy meros hujjatlarini bibliografiyalash va asrash.

-Bibliografiya faoliyatining innovatsion amaliyotlari.

-Bibliografik resurslar: turlari, janrlari, mavzusi va rivojlanish yo'nalishlari.

-Turli tur va tipdagi kutubxonalar bibliografik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

-Hujjatlarni bibliografik tavsiflash me'yorlarini ishlab chiqish va joriy etish.

-Bibliografik ma'lumotlarni nazorat qilish va tatbiq etish formatlari

-Kutubxona kataloglari: kataloglashtirishning axborot-texnologik paradigmasi.

-Raqamli transformatsiyalar davrida bibliografik xizmatning o'ziga xosligi. Virtual ma'lumotnoma-bibliografik xizmat: yondashuvlar xilma-xilligi.

-Fan, texnika, ta'lim va madaniyatni bibliografik ta'minlash.

-Kitoblar va kitobxonlikni targ'ib qilishning bibliografik vositalari.

-Bolalar va yoshlar uchun bibliografiya.

-Bibliograflarning kasbiy ta'limi: tendensiyalar va yondashuvlar.

-Shaxsning axborot madaniyati. Intellektual faoliyatning asosi sifatida bibliografik madaniyat.

-Jahon va mahalliy madaniy meros kontekstida tarixiy-bibliografik tadqiqotlar. Tarixiy-bibliografik tadqiqotlarda biografika.

Dunyoning ko'plab mamalakatlaridan kelgan mutaxassislar yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha qiziqarli ma'ruzalari va taqdimotlari bilan ishtirok etishdi.



Bibliografiyaning zamonaviy taraqqiyoti globallashtirish, tezkor axborot oqimi, raqamlashtirish jarayonlari va madaniy merosni saqlash bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, xalqaro kongress bibliografiya rivojining istiqbollari, zamonaviy axborot texnologiyalarining samaradorligi va kutubxonalar oldida turgan dolzarb vazifalarni muhokama qilish uchun yirik maydon bo'ldi.



Tadbir xalqaro bibliografik hamjamiyatning dolzarb masalalar bo'yicha birgalikda fikr almashish, tajriba va yondashuvlarni uyg'unlashtirish imkoniyatini kengaytirdi.

Kongressning markaziy muhokama mavzusi — madaniy merosni bibliografik jihatdan qayd etish, tasniflash, kataloglash va elektron shaklga o'tkazish masalalariga qaratildi. Ayniqsa, quyidagi masalalar muhim o'rin tutdi:

-regional va etnik adabiyotlarni tizimda ro'yxatga olish;

-mahalliy tillarda yaratilgan adabiyotlarni saqlash va ularni global ilmiy aylanishga kiritish;

-nomoddiy madaniy merosni bibliografik vositalar yordamida hujjatlashtirish;

Sibir va Arktika xalqlarining til manbalari va og'zaki ijodini kataloglash. Bu yo'nalishda Yakutiya kutubxonalari amaliy tajribasi e'tirofga sazovor bo'lib, ular o'z hududining ko'p millatli madaniy merosini raqamlashtirish borasida yetakchi tajribani namoyish etdi. Kongressda zamonaviy kataloglashtirish jarayonlari, xususan:

- Linked Data,
- RDF modeli,
- xalqaro metama'lumot standartlari (MARC, RDA),
- mualliflik identifikatorlari (ORCID, VIAF),
- universal klassifikatsiya tizimlari keng, muhokama qilindi.

Raqamli kataloglar kutubxona xizmatlarini shaffof, moslashuvchan va global miqyosda moslashtirilgan ko'rinishga aylantirmoqda. Bunda bibliografiya endilikda faqat "ro'yxat tuzish amaliyoti" emas, balki turli axborot tizimlari o'rtasida integratsiyani ta'minlaydigan ilmiy-informatsion faoliyatdir.

XXI asrda bibliografiya va kutubxonachilik raqamlitexnologiyalarsiztasavvuretibbo'lmaydi. Kongressda quyidagi texnologiyalarning joriy etilishi alohida ta'kidlandi:

-sun'iy intellekt asosidagi avtomatik kataloglashtirish;

-matnlarni semantik tahlil qilish va tasniflash;

-elektron kutubxonalar yaratish va ularni bulut texnologiyalariga o'tkazish;

-foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, shaxsga mos axborot taklif qilish.

AI bibliografik faoliyatda inson mehnatini yengillashtirish bilan birga, sifat va aniqlikni ham oshiradi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi, ma'lumotlarni himoya qilish kabi muammolar ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Kongressda alohida yo'nalish sifatida yosh avlodning o'qish madaniyatini shakllantirish masalasi ko'tarildi. Yoshlar uchun bibliografik resurslar yaratish, media savodxonlik dasturlari, kitobxonlikni targ'ib qilish loyihalari haqida qator ma'ruzalar tinglandi.

Bu yo'nalish kutubxonachilikning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. IV - xalqaro bibliografik kongress — bibliografiya, kutubxonachilik va axborot madaniyati taraqqiyotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. U bibliografiyani global madaniy jarayonlarning muhim bo'g'ini sifatida qayta baholashga yordam berdi, ayniqsa: madaniy merosni saqlash, til xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalarini joriy etish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi yo'nalishlar bo'yicha yangi ilmiy konsepsiyalarni shakllantirdi. Mazkur kongress bibliografiya fanining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berdi va global ilmiy hamjamiyat o'rtasida o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.



## XXI-ASR BIBLIOGRAFINING VAZIFASI



**SHOXIDAXON SHOKIROVA**  
Z.M.Bobur nomidagi Andijon viloyati  
axborot-kutubxona markazi  
axborot–bibliografiya xizmati  
mutaxassisi

**Аннотация:** В статье освещается роль библиографической деятельности в современных информационных условиях. Рассматриваются особенности организации библиографических занятий, направленных на развитие у учащихся навыков поиска и использования информации, а также формирование читательской культуры.

**Ключевые слова:** библиографический урок, библиотечная деятельность, культура чтения, информационная грамотность, навыки чтения, информационные технологии, самостоятельное обучение, компетенции библиотекаря, работа с учащимися, библиографические знания

Hozirgi kun kitobxon bilan o'ttiz, qirq yil oldingi kitobxon o'rtasidagi farq kattaligi hammamizga yaxshi ayon. Bugungi kunda bosma kitob, elektron kitob va internet muhitidan axborot olib o'zining bilim olish, mustaqil ishlash va mutolaa madaniyatini shakllantirish borasida kitobxonlarimizning tanlov imkoniyatlari juda katta. Jamiyat har bir insonga ulardan erkin foydalana olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bosmaxonalar, kitob savdosi do'konlari, ommaviy axborot vositalari, kutubxonalar, ma'lumot qidirishning yangidan-

yangi usullari rivojlanib borayotgan internet muhiti, axborot texnologiyalari insonlarga axborotning juda katta oqimini taklif etmoqda. Bu katta oqimda erkin xarakatlanish, zarur axborotni tanlashga o'rgatishi uchun har bir kutubxonachi ham an'anaviy ishlash ko'nikmalariga, ham IT mutaxassisi sifatida bilimga ega bo'lishi kasbimizning muhim sharti bo'lib qolmoqda.

Axborot-kutubxona muassasalaridagi asosiy ishlardan biri - KITOBXONLAR BILAN ISHLASH deyarli har kungi odatiy va muhim

jarayonlardan biridir. Kitobxonlik va o'qish qonuniyatlarini o'rganishga asoslangan kutubxonaning to'liq faoliyati: o'qishga rahbarlik qilish, bibliografiya va axborot ishini o'zida jamlaydi.

Axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari bu yo'nalishda kitobxonlar uchun yakka va guruhli tartibda kompleks ishlar olib boradilar. Aynan shu kompleks ishlarining biri - bibliografik darslar hisoblanadi. Qo'llanma orqali sizlarni asosiy e'tiboringizni aynan ish faoliyatimizning shu yo'nalishiga qaratmoqchimiz.

"Kutubxona-bibliografik bilimlar targ'ibotini tashkil qilishda bibliografik darslarning o'rni" mavzusidagi ushbu metodik – bibliografik qo'llanma qo'yidagi qismlardan iborat:

-Kirish

-Bibliografik darslarni tashkil qilish va o'tkazishdan maqsad va o'ziga xos jihatlari

-Maktab o'quvchilari uchun bibliografik darslar dasturi

### **BIBLIOGRAFIK DARSLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHDAN MAQSAD VA O'ZIGA XOS JIHLARI**

Bibliografik dars nima? - kitobxonlarni axborot tashuvchilar – bosma nashrlar va internet muhitidan mustaqil ravishda kerakli axborotni izlab topish va u bilan mustaqil ishlashga o'rgatish jarayoni.

Albatta bu darslar kitobxonlarning yoshi, o'qishi, qiziqishi, ixtisosliklari, mutolaa madaniyatini shakllanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Jumladan :

Har bir yosh guruhida kitob mutolaasi

-7 yoshdagi kitobxonlar uchun bu davr - ertak, hikoyalarni tinglashdan harflarni tanish va mustaqil o'qishni o'rganishga o'tish davri hisoblanadi.

-8-9 yoshlardagi kitobxonlar maktabning 2-3-sinf o'quvchilari. Bu davrda bolalarda asta-sekin o'qish ko'nikmasi shakllanib boradi ularning qiziqishlari keng va o'zgaruvchan hisoblanadi.

Har bir yosh guruhlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolasining o'ziga xos jihatlari, o'z qonuniyatlari mavjud bo'lib, axborot-kutubxona ishlarini tashkil qilishda ularni hisobga olish o'ta muhim hisoblanadi.

**BIBLIOGRAFIK DARSLARGA TAYYORGARLIK METODIKASI** - bibliografik darslarning maqsadi - o'quvchilar o'rtasida kutubxona-bibliografik savodxonlik asoslari bo'yicha asosiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Bunday ko'nikma va malakaga quyidagilar kiradi:

-turli axborot manbalarini bilish;

-savollar va so'rovlaringizni to'g'ri shakllantirish

-kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlash

-turli manbalarda - topilgan ma'lumotlarni to'g'ri qo'llash.

### **Bibliografik darslarni tashkil qilish va o'tkazish bosqichlari**

-Har qanday shakldagi mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'ziga xos rejalashtirish zarur. Tayyorgarlik va amalga oshirishning har bir bosqichi puxtalik, mulohaza va albatta ijodkorlikni talab qiladi.

-Tayyorgarlik bosqichi dars mavzusi, o'tkazish joyi va shaklini belgilashni o'z ichiga oladi.

-Bolalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ular orasida dastlabki test so'rovini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

-Kerakli adabiyotlarni tanlash va o'rganish, ko'rgazmali materiallar tayyorlash, mavzuga oid kitob ko'rgazmasi tashkil etish, iqtiboslarni tanlash zarur.

-Darsga tayyorgarlik ko'rishning muhim qismi bu uni amalga oshirish rejasini tuzish bo'lib, unda darsning maqsad va vazifalari, darsning borishi albatta hisobga olinadi, nazorat savollari tuziladi.

-Bundan tashqari, darsning amaliy qismi uchun texnik jihozlar ta'minoti haqida o'ylash va tarqatma materiallarni tayyorlash kerak.

### **Darsni o'tkazish - asosiy bosqichdir**

•Uni o'tkazish texnologiyasi aynan shu dars turi uchun, mavzu uchun, yosh guruhi uchun va boshqalar uchun maqbul bo'lgan shakllar, usullar tanlashga qarab o'zgarishi mumkin.

•Bolalar bilimlarni aniqlash uchun ular o'rtasida qisqacha so'rov o'tkaziladi, yangi material taqdim etiladi, mustahkamlash uchun amaliy ishlar amalga oshiriladi, o'zlashtirish darajasi tekshiriladi, ba'zi hollarda uyga vazifa beriladi.

•Dars yakunida bolalarning darsdagi faolligini tahlil qilish, shuningdek, darsni rejalashtirish va o'tkazishda kutubxonachilarning mahoratini baholashni o'z ichiga oladi.

•Dars samaradorligini baholash ko'p jihatdan kutubxonachining o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish qobiliyati, materialni qiziqarli taqdim etish, bolalarning darsdagi faolligi kabi jihatlarga ham bog'liq.

Maktab, oila, kutubxona birligida muntazam ravishda ma'lum bir loyiha asosida bibliografik darslarni rejali asosda tashkil qilinishi samarali natijaga erishishning muhim omili hisoblanadi.

O'quvchilar o'rtasida muntazam ravishda bibliografik darslarni tashkil qilinishi natijasida kutubxonalarimizda kitobxonlar sonining ortishi bilan birga, kitob o'qishga qiziqishining o'sishi, bilimlar doirasining kengayishiga xizmat qiladi. Maktab o'quvchilarining bibliografik bilimlarining yuqoriligi kutubxonachilar mehnatini ham yengillashtiradi. Chunki o'quvchi nashrlarni mustaqil qidirishni biladi, kitob tanlashda katalog va kartotekalar tizimi, annotatsiya, so'z boshi, mundarijalardan foydalana oladi. Bu esa kutubxonachiga kitobxon bilan yakka tartibda ishlash uchun ko'proq vaqt ajratish imkoniyatini beradi.

Bibliografik darslarni o'tkazish shakllari an'anaviy ma'ruza, suhbat, adabiyotlar sharhlari bilan birga viktorinalar, bibliografik o'yinlar, turli kichik sahna ko'rinishlari, kitob haqidagi bahs va munozara kechalari, adabiy kechalar, adabiy sayyohatlar, amaliy mashg'ulotlar, tanlovlar va boshqa shakllarni o'z ichiga olishi mumkin.

### **Kutubxonachi yodda tutadigan bir jihat bor**

-kutubxona-bibliografik bilimlar targ'ibotida bibliografiya xizmati va kitobxonlarga xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar faoliyati muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

-Maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda ma'lum bir asarni o'qish, o'rganish, tahlili bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etib boriladi;

-Ish jarayonida o'quvchilarga ko'proq imkoniyat bergan holda ularni mustaqil ishlashini ta'minlanishga e'tibor kuchaytiriladi.

### **Maktablarda bibliografik darslarni tashkil qilishda avvalo yosh guruhini hisobga olgan holda vazifalarimizni belgilaymiz:**

-O'qishda yuzaga keladigan dastlabki qiyinchiliklarni yengish va muntazam ravishda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish;

-Kitob tarixi - papirus, plita, qog'ozlarning yaratilishi bilan tanishtirish;

-Kutubxonalaridan foydalanish qoidalari bilan tanishtirish.

-Bolalar adabiyoti bilan tanishtirish;

-Kitoblarga muhabbat, uni asrashni tarbiyalash, ta'mirlashga o'rgatish;

-Kutubxonalar va uning kitob jamg'armasidan foydalanishni o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitob o'qish texnikasi – yorug'lik tushishi, kitob va ko'z o'rtasidagi masofa, o'tirishda gavdaning holati haqida bilimlar berish bilan birga, so'zlar o'qish tezligini oshirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor Abdusalom Yo'ldoshevning "Mutolla madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot" nomli monografiyasida bu borada qiziqarli fikrlar berilgan: "Mutolaa texnologiyasining miqdoriy jihati esa, o'quvchining tez yoki sekin o'qishida namoyon bo'ladi. Tez o'qishning mutolaa hodisasidagi ahamiyati yuqoridir. Mutolaa jarayonida shaxsning operativ xotirasi hamda diqqatning muqimligi shakllanadi. Bu ikkalasi esa o'z navbatida shaxsning aqliy



kamolotini ta'minlaydi. Mutolaa tezligi tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rta maktabning 6-7-sinflariga kelib, o'qishdagi faollik keskin pasayadi. Bunga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri - o'quvchilarda shaxsiy ma'suliyatning pasayishi bo'lib, bu holat 5-sinflarda ayniqsa yorqin kuzatiladi. O'z navbatida bu mas'uliyatsizlikni shakllanishiga 3-4-sinflarda darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmaslik sabab bo'lib, bu esa turli murakkablikdagi matnlarni tez o'qiy olmaslik natijasidir. Yuzaga kelgan holatdan kelib chiqadigan ilmiy-hayotiy saboq shuki, boshlang'ich sinflarda tez o'qish qobiliyatini egallay olgan o'quvchilar keyinchalik ham o'zi ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, faol hamda har tomonlama yetuk insonlar bo'lib yetishish imkoniyatlarini oshiradilar"

**Maktab o'quvchilari o'rtasida o'qish tezligi bo'yicha bir qator me'yorlar mavjud.**

**Masalan:**

**1-sinf o'quvchilari uchun:**

1-yarim yillikda 1 daqiqada 25-30 so'z  
2-yarim yillikda 1 daqiqada 30-40 so'z

**4-sinf o'quvchilari uchun:**

1-yarim yillikda 1 daqiqada 90-105 so'z  
2-yarim yillikda 1 daqiqada 105-120 so'z

V. I. Zaytsevning fikricha "optimal o'qish" so'zlashuv nutqi darajasida o'qishni bildiradi. Bu minutiga 120-150 ta so'z demakdir. Ilmiy xodim va rahbar lavozimidagilardan yanada tezroq o'qish talab qilinadi.

Bu ma'lumotga ega bo'lgandan keyin esa ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida

- Tez o'qish,
- Ifodali o'qish
- O'qigan matnini kitobni yumib takrorlash bo'yicha musobaqalar o'tkazish samarali natijalar beradi.

Quyida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining bibliograflari uchun taxminiy dars, mashg'ulotlar dasturi tuzildi.

**Maktab o'quvchilari uchun bibliografik darslarning namunaviy dasturi**

**2-4-sinflar:**

1-mavzu: Kutubxonaga sayyohat. Kitob, kutubxonalar va kutubxonachilar haqida asosiy tushunchalar. Abonement, o'quv zallari, asosiy fondni saqlash xizmati, kompyuter zallari va kutubxonachilar, kutubxona ish

tartibi, kutubxonaga a'zo bo'lish tartibi haqida tushuntirish beriladi. Maktab kutubxonalari, tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, viloyat axborot-kutubxona markazlari, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika bolalar kutubxonasi haqida so'z boradi.

Mavzu: Kitob o'qish san'ati. Qoidalari. (15-30 minut. Ma'ruza)

Mavzu: Ifodali o'qish (tayyorgarlik 10 -15 kun) Tanlovlar.

Mavzu: Kitobning tuzilishi. (25 minut. Ma'ruza). Videorolik, slayd va kitoblarni ko'rsatish orqali kitobni kim yaratadi, chop etadi, kitobning tuzilishi. Tashqi ma'lumotlar - muqovasi, titul varog'idagi ma'lumotlar. Ichki ma'lumotlar – matn, beti, so'z boshi, kirish, muqaddima, qaysi kitobxon guruhiga mo'ljallanganligi, xulosa, xotima, mundarija, kitob taboqlari, illyustratsiya rasmlari haqida axborot berish.

Mavzu: Gazeta va jurnal tushunchalari. (30 minut) Bolalar uchun mo'ljallangan gazeta va jurnallar. "G'uncha", "Gulxan", "Bor ekan – Zo'r ekan", "Bilimdon" jurnallari. Rubrikalari, maqolalarning mualliflari bilan tanishtirish. Gazeta va jurnallarga obuna bo'lish. Ularni uyimizga yetkazib berish xizmati haqidagi axborotlar. Guruhlarda o'quvchilarning ishlari.

Mavzu: Bolalar adabiyoti. Bolalar ensiklopediyalari: tuzilishi, qidiruv tizimi, alohida tomlari, seriyalik nashrlar. Ensiklopediyalardan foydalanish tartibi. (2-mashg'ulot. Guruhlarda ishlash.)

Mavzu: Folklor adabiyotlar. Ertaklar, topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar, dostonlar. (45 – minut. Musobaqalar)

Mavzu: Axborot-kutubxonamuassasalaridan kitob tanlash. Amaliy mashg'ulot. Ochiq fond. Kitoblarni kitob polkalarida joylanishi tartibi. Ajratkichlar. Katalog va kartotekalar tizimi (alfavitli, sistemali kataloglar, kartotekalar tizimi) katalog kartochkalari.

Mavzu: Kitobni asrash. Ularni ta'mirlash. Sahna ko'rinishi va amaliy mashg'ulot tarzida o'tkaziladigan bu darsda o'quvchilar mustaqil

ravishda yordamga muhtoj kitoblar va ularni asrash haqida sahna ko'rinishini tayyorlaydilar, kitoblarni ta'mirlaydilar.

### 5-7-sinflar:

Mavzu: Andijon viloyati kutubxonalari tarixi. (45 minut). Dars –videorolik- sayohat

Mavzu: O'qigan kitob haqidagi fikrlarini yozish ( 10 kun) Uyga vazifa.

Mavzu: Xatcho'plarni tayyorlash. Tanlov. (10-kun). Maktabning 6-7-sinf o'quvchilari o'rtasida tanlov e'lon qilib o'zi o'qigan kitobini boshqa kutubxonaga tavsiya qilish, kutubxona ish tartibi, kutubxonadan, kitobdan foydalanish qoidalari haqida eslatmalar yozilgan xatcho'plar tayyorlash. Kompyuter dizayni, qo'l mehnati. Eng yaxshi tayyorlangan xatcho'plardan esa kitobxonalar foydalanishi uchun ko'proq chop etib chiqarish va maktablar, axborot-kutubxona muassasalariga tarqatish.

**Mavzu:** Dunyoning yirik kutubxonalari (45 minut) Dars. Slayd. Vazifa mustaqil axborot izlash. O'quvchilar mustaqil bu bo'yicha sinfdoshlariga axborot beradi. Taqdimot.

### Manbalar :

1. Dunyo kutubxonalari. –Kirish tartibi: <https://einfolib.uz/category/dunyo-kutubxonalari-erkin>

2. Tillashayxova SH. Dunyodagi eng zamona-viy 13 kutubxona haqida bilasizmi? / Shahnoza Tillashayxova. – Kirish tartibi: <https://xs.uz/uzkr/34910>, erkin.

3. Dunyoning eng mashhur kutubxonalari. – Kirish tartibi: <https://zamin.uz/dunyo/62701-dunening-eng-mashhur-kutubxonalari.html>, erkin.

**Mavzu:** Kitoblarning turlari. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar. (Ma'ruza. Amaliy mashg'ulot).

Mavzu: Kitob ko'rgazmalari, turlari, kitobxon guruhi (45 minut. Ma'ruza.).

**Manbaa:** Karimova, D. Uslubiy material: kitob ko'rgazmalarini tashkil etish tajribasi / D. Karimova. –Kirish tartibi: erkin

[https://uznel-lps.natlib.uz:444/FN/dl\\_image/upload/userfiles/files/Kitob\\_kurgazmalarini\\_tashkil\\_etish\\_tajribalari.pdf](https://uznel-lps.natlib.uz:444/FN/dl_image/upload/userfiles/files/Kitob_kurgazmalarini_tashkil_etish_tajribalari.pdf).

Solieva, D. Virtual ko'rgazmalar tayyorlash mexanizmi: slayd / D. Solieva. – Andijon: Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi, 2022. – 26 b.

**Mavzu:** Ma'lumot-bibliografiya apparati. (kataloglar, kartotekalar, solnomalar. 2-soat.).

**Manbaa:**

Давыденко, М. И. Сценарии библиографических игр: [электронный ресурс] / М. И. Давыденко. – Режим доступа: <https://www.calameo.com/read/00295035712513134a73f>, свободный.

Литературные игры в библиотеке: методические рекомендации: [электронный ресурс] / сост. А.А. Денисова. – Режим доступа: свободный. <https://biblioteka29.ru/upload/medialibrary/f42/game.pdf>

**Mavzu:** Ma'lumot-bibliografiya fondi. entsiklopediya, lug'atlar. Ulardan foydalanish. (45 minut). Sinonim lug'atlari bilan ishlash. Antonim lug'atlari bilan ishlash. O'zbek tilining izohli lug'ati bilan ishlash. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi bilan ishlash. Guruhlarda ishlash, musobaqalarni tashkil qilish, kvestlar o'tkazish.

Mustaqil bilim olish asoslarini asta-sekin o'rgatish. Nashrni mustaqil o'qib chiqish va mutolaadan oldingi va keyingi olgan bilimlari, natijalarini baholash.

**Manbaa:**

Sayidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 94.

**8-11 sinflar:**

**Mavzu:** Axborot-kutubxona muassalarining elektron saytlari. Internet muhitida kutubxonalarning axborotlarini izlash. Masalan:

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

[press.natlib.uz](http://press.natlib.uz)

[andijan.natlib.uz](http://andijan.natlib.uz)

<https://press.libbobur.uz/>

<https://media.natlib.uz/>

<https://e-base.natlib.uz/>

**Mavzu:** O'quv reja tuzish. (45 minut. Amaliy mashg'ulot)

**Mavzu:** Nashrlarga bibliografik tavsif berish (40 minut. Amaliy mashg'ulot. Guruhlarda ishlash)

**Mavzu:** Axborot-bibliografiya xizmati. Bibliografik qo'llanmalar. (35 minut. Axborot soati)

**Mavzu:** Referat, ma'ruzalarni tayyorlash jarayonlari. Ularni qoida asosida tuzish (45 minut. Amaliy mashg'ulot).

11 – sinf :

**Mavzu:** Qadimgi maqollarni bilish bugungi kunda ham kerakmi? (45 minut. Bahsmunozara)

**Mavzu:** Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ot at-turk". (45 minut. Ovozli o'qish, "Aqliy hujum", "Ajurli lampa" pedagogik texnologiyalari foydalanish.

**Manba:**

Sayidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 95.

**Mavzu:** "Zahiriddin Muhammad Boburning lirikasi" da bugungi kunda qo'llaniladigan faol so'zlar. (45 minut. Guruhlarda ishlash.)

**Mavzu:** Anbar Otin "Risolayi falsafayi siyohon" mazmun-mohiyati. (45 minut. Guruhlarda ishlash. "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanish.)

**Manba:**

Sayidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 94.

**Mavzu:** Axborot-kutubxona muassaslaridagi ma'lumot-bibliografiya apparati. (45 minut. Maslahat)

**Manba:**

Создай свою библиографическую игру / сост. Е.В. Сизехина. – Режим доступа: <http://soub.ru/node/8491>, свободный.

**Mavzu:** Kitob yoki internet : hamkorlarmi yoki raqiblar? (45 minut. Bahs va munozara)

**Mavzu:** Kitobni ichidagi spravka apparati (1 soat. Bibliografik qidiruv. Amaliy mashg'ulot)

**Mavzu:** Shaxsiy kutubxonalarni shakllantirish. (30 minut. Mahorat darsi) Shuningdek bibliografik dars davomida maktabdagi o'quv

dasturi asosida o'rganiladigan adabiyotlar, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ro'yxati har bir sinflar kesimida kutubxonachi xodimlarda bo'lishi lozim. O'quvchilar o'qigan kitobini konspektlash, referat yozish, uni to'g'ri rasmiylashtirish, adabiyotlar ro'yxatini tuzish va uni joylashish tartibini ham bilishlari lozim.

Ayrim mavzular kelgusi yillarda ham takrorlanishi mumkin. Faqat mavzu kengroq va boshqa ish shakllaridan foydalaniladi. Bibliografik darslarni qiziqarli o'tkazilishida kutubxonachining ijodiy yondashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Krossvordlar, tezkor o'yinlar, musobaqalar – har bir mashg'ulotni o'tkazilish shakllari ustida alohida to'xtalish kerak bo'ladi. Mavzu bor. Lekin uni o'quvchiga yetkazish shakliga kelganda – e'tibor ijodkorlik va tashabbusga beriladi. Yangicha bibliografik o'yinlar ishlab chiqish va ish faoliyatida qo'llash ko'proq samara beradi. Krossvord tayyorlash, stol ustida qog'ozga daraxt chizib, asar haqidagi ma'lumotlarni kiritish o'yini, "Adabiy sud" shakli va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Библиотечный урок, как основной вид деятельности библиотеки по формированию информационной культуры детей и подростков: методические рекомендации : [электронный ресурс] / ГУК «Централизованная библиотечная сеть Бобруйского района», Центральная библиотека, отдел библиотечного маркетинга / составитель Ж.Б. Воробьева, редактор Л. И. Схаба. - Бобруйск, Центральная районная библиотека, 2018. - 23 с.

2. Yo'ldoshev Abdusalom. Mutola madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. Monografiya / A. O. Umarov; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 35-36.

3. Sayidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 94-102.

### VAQTLI MATBUOT NASHRLARI

4. Программа библиотечных уроков // Библиотекарь. – 1976. – № 4. – С. 20-21.

### INTERNET RESURSLARI

5. Давыденко, М. И. Сценарии библиографических игр : [электронный ресурс] / М. И. Давыденко. – Режим доступа : <https://www.calameo.com/read/00295035712513134a73f>, свободный.

6. Литературные игры в библиотеке: методические рекомендации / сост. А. А. Денисова: [электронный ресурс]. – Режим доступа: свободный. <https://biblioteka29.ru/upload/medialibrary/f42/game.pdf>,

7. Примерные темы библиотечных уроков. – Режим доступа: свободный. // <https://vk.com/@-185911948-primernye-temy-bibliotечnyh-urokov>,

8. Создай свою библиографическую игру/ сост. Е. В. Сизёхина. – Режим доступа: свободный. <http://soub.ru/node/8491>,





**MUBORAKXON ISOQOVA**

Andijon viloyati Buloqboshi tumani axborot-kutubxona markazi direktori

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI O‘QISH MADANIYATINI TARBIYALASH

**Аннотация:** В данной статье анализируется внедрение информационных технологий в практику работы в ИБЦ Булакбашинского района и освещается опыт использования современных технологий для развития культуры чтения.

**Ключевые слова:** культура чтения, информационные технологии, цифровое чтение, электронные книги, молодежь и чтение, виртуальная библиотека, медиаграмотность.

XXI asr — bu inson hayotining barcha sohalariga tub o‘zgarishlar olib kirayotgan axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanish davridir. Yangi raqamli muhit nafaqat ishlab chiqarish va ta’lim tizimiga, balki jamiyatning madaniy va ma’naviy hayotiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Xususan, mutolaa madaniyatida kuzatilayotgan o‘zgarishlar global raqamli transformatsiyaning muhim ko‘rinishi hisoblanadi.

Bugungi kunda kitobxonlarimiz nafaqat an’anaviy bosma nashrlarga, balki elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn platformalarga ham murojaat qilmoqdalar, bu esa, shubhasiz, mutolaa madaniyatiga ta’sir etadi. O‘ziga xos raqobat yuzaga kelmoqdaki, bu ma’lum

darajada adabiyot tanloviga ta’sir ko’rsatadi va biz mutolaaning turli strategiyalarini izlashga majbur bo‘lamiz.

Tajriba shuni ko’rsatadiki, o‘quvchilar dunyoqarashining shakllanishi ko‘proq an’ana-viy bosma manbalarni o‘qishga bog‘liq. Chunki aynan ular tushunarsiz matnlarni qayta o‘qish, to‘xtab mulohaza yuritish, kitob mazmunini ochib berish uchun muallif tomonidan keltirilgan faktlar, maqollar, qahramonlar harakteri tavsifi va voqealar tahlili nimalarni anglatishini anglashga imkon beradi. Bu esa talabanning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, ma’naviy, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Mutolaa madaniyati — bu shunchaki kitob

o'qish odati emas, balki insonning intellektual, ma'naviy va estetik rivojlanishini ta'minlovchi murakkab sotsiomadaniy fenomendir. U tahliliy yondashuvni, estetik zavqni va axborotni ongli hamda kreativ tarzda iste'mol qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu sababli, mutolaa madaniyatini tarbiyalash jarayonida kutubxonachilarimiz o'quvchilarda mavzularni ongli ravishda tanlash ko'nikmasini rivojlantirishga intilmoqdalar. Masalan, umumta'lim jarayoniga ko'maklashish maqsadida biz maktab dasturiga kiritilgan shoir va yozuvchilar ijodi haqida qo'shimcha materiallar, bibliografik ma'lumotnomalar, bibliografik savodxonlik darslari, shuningdek, katalog va kartotekalardan (jumladan, elektron turidan) foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni taklif etamiz.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berish uchun esa asarlar muhokamasi va tahlilini tashkil qilamiz. Masalan:

- Shuhratning «Oltin zanglamas» (matnda «Золотая чешуя» deb xato ketgan bo'lishi mumkin, asar nomi «Oltin zanglamas» — tahrirlovchi izohi) asari tahlil qilindi.

- Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiga bag'ishlangan «Behbudiy zamondoshlar nigohida» mavzusidagi muhokamada o'quvchilar asarning har bir detalini tahlil qilib, o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Tashkil etilgan tadbirlarga ekspert sifatida jamoatchilik vakillari taklif etiladi, ular o'qilgan adabiyotlar natijalari bo'yicha individual intervyu va so'rovnomalar o'tkazishga yordam beradi. «Ijodkor yoshlar» kitobxonlar klubi a'zolari ishtirokida o'tkazilgan «Ajdodlarimiz merosini o'rganamiz» mavzusidagi savol-javob kechasi ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Abdulhamid Cho'lpon nomidagi jamoat fondi ijrochi direktori Muhammadrasul Mamatqulov ishtirok etdi. Muhammadrasul Mamatqulov «Ijodkor yoshlar» klubi a'zolarini bayram bilan tabriklab, o'z tavsiyalarini berdi. Tadbir jonli savol-javoblar ruhida o'tdi.

Buloqboshi tuman axborot-kutubxona markazi tomonidan «Nuroni» jamg'armasi

tuman bo'limi bilan hamkorlikda «Millat fidoiylari» mavzusida uch avlod uchrashuvi va munozara o'tkazildi.



### Tadbirga quyidagi mehmonlar taklif etildi:

Sirojiddin Yo'ldoshev — “Nuroniylar” jamg'armasi tuman bo'limi raisi;

Baxtiyor Qosimov — Urush faxriylari assotsiatsiyasi raisi;

Muhammadrasul Mamatqulov — O'zbekiston Respublikasi Abdulhamid Cho'lpon nomidagi jamoat fondi ijrochi direktori.

Ular yoshlar bilan muloqotda bo'lib, urush qurbonlari hamda andijonlik jangchilarning ko'rsatgan beqiyos qahramonliklari va fidoyiliklari haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashdilar.



Talabalarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda ularning qiziqtirgan mavzulari bo'yicha imkon qadar ko'proq ma'lumot olishga bo'lgan intilishlarini amalga oshirish maqsadida, biz xizmat ko'rsatish jarayonida multimedia va elektron resurslardan faol foydalanmoqdamiz.

Xususan, bizning axborot texnologiyalarimiz — ijtimoiy tarmoqlar orqali foydalanuvchilarga zarur ma'lumotlar taqdim etib borilmoqda. Masalan, ular o'zlariga kerakli axborotni quyidagi veb-saytlardan topishlari mumkin:

<https://b-akm.uz>

[https://instagram.com/\\_buloqboshi\\_takm](https://instagram.com/_buloqboshi_takm)

<https://youtube.com/@buloqboshiakm>

<https://facebook.com/buloqboshitumanakm/>

<https://t.me/buloqboshitakm>

<https://t.me/buloqboshiakm1>

Veb-saytimiz — b-akm.uz menyusi: «Yangiliklar», «Resurslar», «Voqealar», «Audiotaklar», «Kitobxonlar», «Elektron adabiyotlar», «Fotogalereya», «Onlayn test» va «Kitobxonlar bilan aloqa» bo'limlarini o'z ichiga oladi. Hozircha saytda 25 ta audiokitob va PDF formatidagi 24 ta kitob joylashtirilgan.

Shu tariqa, biz raqamli axborot olamiga asta-sekin kirib bormoqdamiz. Elektron kitoblar, audiokitoblar, virtual kutubxonalar, mobil ilovalar va turli onlayn platformalar kutubxonalarimiz mutolaa jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Fondimizda 300 129 nusxa elektron kitob saqlanmoqda va ular ijtimoiy tarmoqlarimizdagi kitob ko'rgazmalarida muntazam namoyish etib boriladi. Mobil ilovalar shaxsiy elektron kutubxonani shakllantirish uchun ko'plab foydali vositalarni taqdim etmoqda, bu esa kutubxonachining kitobxonlar o'rtasida mutolaa madaniyatini oshirishdagi faolligini yanada kuchaytiradi.

Albatta, bularning barchasi kutubxonachidan yuqori darajadagi mediasavodxonlikni talab etadi, zero u kelgusida kitobxonning mediasavodxonligini oshirishga ham mas'ul bo'ladi. Shu sababli, kutubxona xodimlarining viloyat va respublika miqyosida malakasini oshirishga ehtiyoj mavjud. Kutubxonachilar, xususan, axborot-bibliografiya bo'limi xodimlari malakasini oshirish tizimida quyidagi mavzular bo'yicha mediasavodxonlikni o'rgatish muhim ahamiyatga ega:

Foydalanuvchilarda sifatli va ishonchli manbalarni farqlash qobiliyatini shakllantirish;



O'qituvchilar bilan hamkorlikda an'anaviy va raqamli mutolaani uyg'unlashtirish;

Kelgusida yoshlar o'rtasida mutolaani ommalashtirish uchun jahon kutubxonalarida mashhur bo'lgan o'yinli ta'lim platformalarini (gamification) joriy etish.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday platformalar o'quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi, o'yin elementlaridan foydalanish esa mustaqil mutolaa qilishga undaydi.

Biz o'quvchilarga ijtimoiy faol bo'lishda ko'maklashishga harakat qilyapmiz: maqsadlar qo'yish, o'qilgan kitoblar uchun ballar yig'ish, taqrizlar yozish, munozara forumlarida qatnashish, taassurotlar bilan o'rtoqlashish va do'stlar bilan fikr almashish hamda mutolaa rejalarini tuzish shular jumlasidandir. Bu esa internetdagi interaktiv platformalar orqali o'smirlar va yoshlarning o'z tengdoshlari bilan fikr almashishiga, o'qilgan kitoblar bo'yicha qisqa taqrizlar qoldirishiga (masalan, "yiliga 50 ta kitob o'qish" chaqiriqlari) hamda "Top-10" kitoblar ro'yxatini kuzatib borishiga xizmat qiladi. Bunday amaliyot yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi hamda ularning mediasavodxonligini oshirish, kitob tahlili va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bu borada biz maktablar va texnikumlar bilan hamkorlikda mutolaa madaniyatini tarbiyalash ishlarini yanada faollashtirmoqdamiz.

Masalan, o'qituvchilarga dars jarayonida elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratishni, darsdan tashqari mashg'ulotlarda audiokitoblarni tinglash va joylashtirishni, onlayn kutubxonalar va axborot platformalaridan foydalanishni o'rgatishni taklif etamiz.

Bizning nazarimizda, mutolaa madaniyatining kelajagi texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq va bu kutubxonalarning tanqidiy fikrlaydigan, texnik jihatdan bilimli va ongli kitobxonlarni tarbiyalash borasidagi faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov, A. (2020). *Axborot texnologiyalari va zamonaviy jamiyat*. Toshkent: Fan nashriyoti. 5-6-betlar
2. Karimova, D. (2019). *Kitobxonlik madaniyati va uning shakllanish bosqichlari*. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 4(12), 45-51.
3. Komilov, Sh. (2021). "Yoshlar va o'qish madaniyati: muammo va yechimlar". *Zamon va ma'naviyat*, 2(8), 29-34.
4. Islomova, M. (2022). "Raqamli texnologiyalar sharoitida o'quv madaniyati rivoji". *Axborot texnologiyalari va ta'lim*, 3(5), 12-19.
5. Gee, J. P. (2003). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. Palgrave Macmillan. 12-13 p



**VOSIT AHMAD**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

## TOMCHIDA QUYOSH AKSI

*“Musofir daraxt”ni o‘qib...*



**Аннотация:** В статье анализируется художественное своеобразие поэзии узбекского поэта Мухаммада Сидди́ка на примере сборника «Мусофир даракхт». Особое внимание уделяется лаконичности поэтических строк, глубине содержания и образности.

**Ключевые слова:** тема любви, времени, природы, человеческие переживания, выразительные формы.

Jumlai jahonda san'at turlari ko'p. Har birining o'z jilvasi, shaklu shamoili, ohangu ohanrabosi bor. Ular orasida bir san'at turi borki, jozibasi bilan, mo'jizasi ila, qoyilmaqom hosilalari bilan asrlar osha insoniyatni lol qoldirib keladi. Bu-so'z san'ati, bu-adabiyot, she'ru nasr, drama. Yer yuzini yaratmay turiboq Alloh taolo bu san'at turining qudratini anglatdi, ya'ni. "Bo'li!" dediyu olamga asos soldi. Bu bilan hali yaratmagan bandalariga bu san'at turining qanchalar azmu qudratga ega ekanligini ham bildirdi. Shundan beri insoniyat Yaratgan irodasi bilan quvvai hofizasining mezoniga ko'ra, bu san'at turida o'z kuchini sinab keladi.

Aslida, Alloh sunmasa, kishi bir sahifa maktub ham bita olmaydi. Yaratgan sungani uchun

hazrati Navoiyga go'zal g'azallar bitishu, Buyuk "Xamsa"ni yozish imkoniyatini berdi. Bobomiz Bobur Mirzoga qomusiy asar "Boburnoma" ni bitishni nasib etdi. So'z san'atidan unumli foydalangan Nodirabegimu, Zebunisolar betakror aruz namunalarini meros qoldirdi. Abdulhamid Cho'lpon otashin she'rlarini bitdi. Abdulla Oripovning falsafiy tafakkur yo'g'rilgan ash'orlari, Erkin Vohidovning topilmalarga boy she'ru dostonlari yuqori darajadagi so'z san'atlaridir. Oddiy satrlar ila ulkan izhorlarga boy betakror she'rlari Muhammad Yusufni sevimlilar pog'onasiga ko'tardi. "O'tkan kunlar" bilan Abdulla Qodiriy o'ziga haykal qo'ydi.

Shu san'at qudrati bilan bir necha bor o'qish ila tushuna oladigan "Tanholikda yuz yil" (Markes),

“Usta va Margarita”(Mixail Bulgakov) romanlari yuzaga keldi. Lev tolstoy “Urush va tinchlik”ni, Fyodor Dostoyevskiy “Jinoyat va jazo”ni, Jek London “Martin Iden”, Aleksandr Dyuma “Graf Monte Kristo” romanlarini, Vilyam Shekspir betakror fojealarini bitishdi va hokazo kabilar.

Ana endi maqsadga ko‘chsak, shoir, Andijon farzandi Muhammad Siddiq ham tomchida quyosh aks etganidek, “Musofir daraxt” kitobidagi qisqa satrlarida ajoyib topilmalarni taqdim etadi. Bubejiz emas, albatta. Muhammad Siddiqning o‘zi ham tabiatan kamgap, kamsuqum. Ko‘p ishlaydi, kam gapiradi. Biror tadbir bahona poytaxtga qadamranjiyda qilsak, yelib-yugurib xizmatimizda bo‘ladi. Aslida-ku, bu odat uyushma yoshlariga xos xislat. Ammo Muhammad Siddiq viloyatimizga kelganda ham bizni hijolatlariga qo‘yib boshqa mehmonlar bilan o‘tirib olmaydi-da, har qanday yumushdan qochmay xizmatga shay bo‘lib oladi. Andijonlik ekanligini shu bilan ham isbotlab turadi. Buni to‘g‘ri kuzatgan O‘zbekiston Qahramoni, ustoz Ibrohim G‘afurov kitob so‘z boshisida yozadi: “Muhammadjon shu “Musofir daraxt” deb nomlangan she‘rlar kitobigacha ancha-muncha adabiy-insoniy tajribalar yo‘lini bosib o‘tdi. Adabiy jarayonlarda ko‘zi pishdi...” Ustoz haq gapni yozgandi. Tabiiyki, yozmishlari ham qisqa bo‘lib zalvorli fikrlarni aytmoqqa harakat qiladi. O‘ziga xos ushbu uslubini bir she‘rida shunday izohlaydi:

*“Nega she‘rlaringiz qisqa?”  
So‘rashar ba‘zan.  
Hamma she‘rlarim ham  
qisqa emas nafasimdek,  
she‘rlarim bor uzundan-uzun-  
xo‘rsinig‘imdek.*

Nafsilarini aytganda, katta-katta ma‘no tashuvchi bu qisqa satrlari unchalar zavq bermaydigan, o‘yga toldiradigan darajada mazmun kasb etmaydigan uzundan-uzun satrlardan afzalroq, deb o‘ylaymiz. Bunga amal qilgan Muhammad Siddiq urushning mudhish oqibatini ikki satrda tasvirlab qo‘yyapti:

Bobomning yengiga qarab bilar edik,

Shamol qay tarafga esayotganin. (“Urush odamlari”).

Muhabbat mangu mavzu. Uni har bir shoir o‘zicha talqin etadi. Shoirning lirik qahramoni ko‘pchilik ijodkorlar singari ishqini jimjimador so‘zlarga o‘rab izhor qilmaydi. O‘ldim-kuydim deb ayyuhannos solmaydi. Muhabbatini shunchaki kundalik voqea-hodisalar, oddiy manzaralar orasiga kiritadi-da, shu tariqa sog‘inchini, cho‘zilgan hijron onlarini, visolga talpinishlarini izhor etib qo‘ya qoladi. Hatto eshikning oddiy g‘iytillashini ham sog‘ingan odamga qo‘shiq bo‘lib tuyulishini ikki misrada tasvirlab beryapti. Qarangki, sevgi kuyi Muhammad Siddiqning qisqa satrlarida qay yo‘sin ohang beradi:

Yana tushlaringga  
Chipta izladim...

**(“Bedorlik”).**

Yoki,  
Kelasiz, siz go‘zal otingiz bilan,  
Shirin diydoringiz etasiz tortiq,  
Menchi boray desam yaxshi otim yo‘q,  
Hamon yoningizda men yomonotliq.

Yoki,  
Kelsang, kaftimga qor parchasi  
tushganday quvonaman.  
Qayerga yashirishni,  
qanday avaylashni bilmayman.

Ketsang, o‘sha qor parchasi erib ketganday,  
kaftimda ko‘z yoshlar izi qoladi

Yoki,  
Choyimdagi nozik shamalar,  
Kelishingga qilar Sha‘malar.

**(“Irim”).**

Yoki,  
Istarangda isinib oldim.

**(“Diydor”).**

Yoki,  
Lokatsiya tashla ko‘nglingdan...  
Yoki,  
O‘chiraman lahzalik lotereyani,  
zora, isming chiqsa bu safar.

**(“Orzu”).**

Har faslning o'z tarovati, o'ziga xos jozibasi bor. Shuningdek, qishning ham betakror ohanrabosi bor. Qish fasli cho'zilib ketsa-chi?! Odamlarning tashvishli g'imir-g'imirlari boshlanadi. Shoirlar bahor sog'inchi haqida to'p-to'p misralar bilan she'r qoralaydi. Muhammad Siddiq esa, odaticha, buni ham ikki satrda saranjomlab qo'yyapti:

Bugun qulog'imga shivirladi qish,  
Bahor allaqachon yo'lga chiqqanmish...  
**(“Fevral yomg'iri”).**

Shoir ijod qilar ekan, bugungi hayotiy tashvishlarni tasvirlashda xalq og'zaki ijodidan, tarixiy haqiqatlardan unumli foydalanadi. Bunda uning bu borada anchagina bilimli ekanligi, ancha-muncha kitob o'qib qo'yganligi namoyon bo'ladi. Mana bu satrlar qalblarni erib iloh sari yuzlanishga undaydi:

...Oltin baliq tutmoqbo'lsakim bunda,  
Tahajjud qarmog'in tutsin har tunda.

...Bir kun topgay albat xazinayu kon,  
Kimnikiqo'lida xarita- Furqon.

Bo'lsin ikki dunyo saodati soz,  
Kimga uchar gilam bo'lsa joynamoz.

Yana bir mitti she'rida oltin baliqchadan “... Ko'nglimni yamab ber, ko'nglimni” deya iltijo qiladi.

Qo'lga qalam tutganki ijodkor katta ustozlar yo'lga havas bilan boqadi. Ulardek bo'lishga, ulardek yozishga intiladi. Orzular qiladi. Shu bilan birga ular yeta olmagan dovonlariyu, keng qanot yozolmaganlari uchun o'kinadi ham. Inchunun, “Orzu” she'rida yozadi:

“To'yib yozolmagan ustozlar haqqi,  
Bitta na'matagim bo'lsa qaniydi”.

“Toshkent” she'rida “Majnuntol-Mirtemir, chinormi Oybek. Toshkent, daraxtlaring o'zingdek azim. Qodiriy yo'limga chiqib turgandek, Har bir niholingga qilaman ta'zim” deb yozsa, ustoz Anvar Obidjonni shunday xotirlaydi:

Aprel,  
yashillikka burkangan olam,  
Behilar pushtirang gullagan edi.

Sovuq epkin tegdi  
nogoh yuzimga,  
Qaydadir bir daraxt  
qulagan edi.

Muhammad Siddiq tarjimonlik choponini kiyib, tilmochlik qalamini charxlaganda ham o'zinikidek qisqa, lekin mazmundor she'rlar mualliflari ijodiga murojaat etadi:

She'rlarimga qanday kirib qolasiz?  
Axir sizdan ehtiyot bo'lish uchun  
bir qatorli she'rlar bitaman.  
She'rlarimga qanday kirib olasiz.

**(Jo'shqin QARABULUTdan, Turkiya).**

Ikki relsidekmiz  
bir poyezd yo'lin  
neni o'zgartirar  
yaqin bo'lmog'i  
so'nggi bekatning

**(Sunay AKINDan, Turkiya).**

Kitobdagi “Ket desang, qashqar ketay...” hamda “Tushdan keyingi odam” nomli qisqa-qisqa nasrdagi nazmlarni yoki boshqa bir janr mahsulimi, nima bo'lganda ham o'qiguvchining hayollarini uzoq o'tmishiga olib ketadigan, validasiyu, padari buzrukvorini yodiga soladigan, solibgina qolmay, ko'zlariga yosh keltiradigan ixcham o'qishmalar bo'libdi. Alqissa, ushbu kitob ta'rifin o'zganing hikoya qilib berishidan emas, uni o'qibgina lazzat olish mumkin. Darvoqe, kitobning nomi nega “Musofir daraxt”? Unga ham javob bor:

Bobomdek  
vatandan judosan,  
Aybing ne bilolmay karaxtsan,  
Ayt, qachon surgunga uchrading,  
Oqqayin, musofir daraxtsan.

Muhammad Siddiqning go'zal ash'orlar to'plami bilan qutlab, bardavom bo'lishini tilab qolar ekanmiz, bilim va kuzatish tafakkur bilan uyg'unlashgandagina shunday mo'jaz, lekin mag'zi to'q, mazmundor satrlar yuzaga kela oladi, deya fikri ojizimizcha, mulohazaga kelamiz. Muallifga yana bir bora “Ochil dasturxon”ingiz muborak bo'lsin, deya, nazm ixlosmandlariga esa, hech ikkilanishu, xijolat chekmay ushbu kitobni albatta o'qinglar. deb qolaman.

## IJODKORNING O‘Z SO‘ZI BO‘LSA...

*Mahmud Iboning “Tinmasin, hech qachon hayot!” kitobi haqida*



**FARID USMON**

Shoir va adib, O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi a‘zosi. “Do‘stlik” ordeni sohibi

**Аннотация:** В статье освещается творческая деятельность андижанского писателя и журналиста Махмуда ИБО (Ибоева), его вклад в развитие публицистики и художественной литературы. Особое внимание уделено новому сборнику автора «Пусть никогда не утихает жизнь!», в котором через очерки, воспоминания, наблюдения и рассказы раскрываются философские размышления о смысле жизни, человеческих ценностях и нравственности. Автор книги стремится осмыслить прожитый путь, выразить благодарность людям, оказавшим влияние на его судьбу, и призывает читателя к добру, искренности и духовной чистоте. Также подчеркивается его уважительное отношение к литературной среде Андижана и вклад в популяризацию творчества современных писателей и поэтов.

**Ключевые слова:** публицистика, художественная литература, Махмуд ИБО, смысл жизни, нравственность, воспоминания, очерк, современная литература, духовные ценности, узбекская литература

Andijonlik Mahmud IBO (Iboyev) ni ko‘pchilik mehnatsevar ijodkor, taniqli jurnalist, yozuvchi sifatida biladi va sermahsul ijodini kuzatib boradi. Bu ham, aslida bir baxt! Chunki, yozishda ham yozish bor, yozganlaring o‘zing uchun emas, balki keng kitobxonlar ruhiyatiga yetib borgudek bo‘lsa, bu boshqa gap. Shu ma‘noda Mahmud IBOning “Tuprog‘i oltin o‘lka”, “Yashash baxti”, “Ulug‘vor tog‘lar”, “Zamondoshlar”, “Ezgulikka tashna ko‘ngillar”,

“Inson-gavhari aziz”, “Jurnalist surishtiruvi”, “Omon bo‘ling, olisdagi yaqinlarim” kabi o‘n beshga yaqin badiiy-publitsistik asarlarining aksariyati o‘qimishlilik va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi.

Yaqinda muallifning yana bir kitobi - “Tinmasin, hech qachon hayot!” kitobi nashrdan chiqdi.

-Buni qarang-a, -dedi u shu xushxabarni kaminaga yetkazar ekan, -menga ham

umrimning 72 bahorini ko'rish nasib etib turibdi. Shukr. Yana qancha umr bor, buni Alloh biladi. Yoshing ulg'ayganda o'tgan davringga bot-bot nazar tashlaging, ota-onadan tortib, jigarbag'irlaringgacha, bolalik do'stlaringdan tortib, hayotda uchratgan qadrdon-birodarlarining-gacha, ustozlaringdan tortib, shogirdlarining-gacha hamma-hammalarini ko'z oldingdan o'tkazib turgung keladi. Ular bergan tarbiya-yo'l-yo'riqlar qanchalar qanot bo'lganligini his etish baxtiga muyassar bo'lganimdan juda-juda baxtiyorman...Umrim jurnalistika va adabiyot bilan bog'lanib o'tdi va o'tmoqda. Kimlarni uchratmadim, kimlarni ko'rmadim... Yaxshilik ko'rgan insonlar oldida qarzdorlik tuyg'usini hamisha yodda tutib kelaman.Ushbu kitobchaga umrim davomida uchratgan ana shunday aziz siymolar haqidagi xotiralarim, kuzatuvlarim, suhbatlarim jam bo'ldiki, ularni mana endi to'plam holida o'quvchilarga taqdim etmoqdaman...

Uning chiroyli dastxati tushirilgan "Tinmasin, hech qachon hayot!" kitobi shu zaylda mening ham qo'limga yetib keldi. Shoirona nomiga yarasha ajoyib kitob bo'libdi bu! Dastlabki taassurotlarimdan o'zim ham hayajonga tushganimni yashirmayman. Chunki unda o'rin olgan badialar, maqolalar, kuzatuvlar, xotiralar va hikoyalar mazmunida yashashdan maqsad nima ekanligi yaqqol seziladi. Men bu dunyoda yashadimmi, yashamadimmi? Yoki bir buyum xizmatini o'tagandek hissiz tosh-kesakdek umr kechirdimmi? O'zim bilgan, bilmagan, tanigan, tanimaganlarga yaxshilik qila oldimmi? Ulardan manfaatim uchun foydalanib qolishdek uyatli hayolga bormadimmi? Muallif bu savollarga o'zining eng yaqin insonlari misolida javob izlaydi. Dunyoga kelmoq va ketmoq o'rtasidagi umr kechinmalaridan falsafiy ma'no qidiradi.

Yana shunisi e'tiborliki, Mahmudjon Andijon adabiy muhitidagi yangiliklarga, voqealarga bag'rikenglik bilan yondashib keladi. Bu go'zal go'shada yashab ijod qilgan va qilayotgan ustoz adiblarga, shoirlarga hamisha muhabbat bilan qaraydi, kuzatadi, quvonchlariga sherik bo'ladi. Mazkur kitobidagi O'zbekiston Xalq shoiri To'lan Nizom (ilohim, oxiratlari, obod bo'lsin), Abduxalil

Qoraboyev, Qamchibek Kenja, kamina- Farid Usmon, Qobil Mirzo (ilohim,oxiratlari obod bo'lsin), Habib Siddiq va boshqa tajribali qalam ahlining ijodiy laboratoriyasiga chanqoq o'quvchi sifatida razm tashlaydi, mushohada yuritadi, oddiy kitobxonga asarlar mohiyatini teran anglashga ko'maklashadi. Adabiy mulohazalarining rang-barangligi va muhimi, beg'arazligi, ijodkor mehnatini qadrlay bilishi bu, bugungi kunda kitobxonlik darajasi yuqalashib borayotgan bizning muhitimizda juda ham zarur va olijanob ishdur!

Kitobda komil inson darajasiga yetishgan bir qancha hamyurtlarimiz haqida ham badiiy ocherklar, lavhalar o'rin olgan. Odamiylikka isnod keltirmaslik kerak, degan chaqiriq yangrayotgandek bo'ladi bularni o'qisangiz. Bugun molparastlik, dunyoparastlik, shuhratparastlik, ko'zbo'yamachilikdek illatlar millat rivojiga andek to'siq bo'lib qolayotir. Publitsist-yozuvchi har qanday sharoitda g'urur va oriyatni qo'lda mahkam ushlab, illatlardan ustun tura bilishlikka da'vat etayotgandek tuyuladi.

Suhbatimiz oxirida u "Men ham yashadimmi..." deb nomlangan yana bir kitobini nashrga topshirganini ham aytib o'tdi. Quvondim va duo qildim.

- Shu paytgacha ancha-muncha kitoblaringiz chiqdi, nima uchun uyushmaga o'tmayapsiz? Ariza bering, axir...- dedim.

Ukulib bunday dedi: -O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi degan nom ortida og'ir yuk bor...Shundan cho'chiyman. Unutilmas asarlar yozishga qodir bo'lmasang, millat dardida, iztirobida yonmasang, kuymasang... A'zo bo'ldingmi, adabiyotda o'zingni ko'rsatishing kerak... O'z-o'zingni qamchilashing kerak... Nimalardandir voz kechishing kerak... Shu bois bu mo'tabar nomga haddim sig'maydi, shunday qolganim durust. Boshqa uyushma a'zolariga esa olam-olam muvaffaqiyatlar tilayman va olqishlayman...

Nima ham derdik, u haq. Baxt kaliti – sog'lom fikrlashda. Shunday kamtarin ijodkor ukam borligidan faxrlanaman.

## О ПОЭТЕ И ПОЭЗИИ



ОЛЬГА АХУНЖАНОВА,

главный специалист отдела основного книгохранения Андижанского областного информационно – библиотечного центра имени З.М.Бабура

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Andijon viloyati Z.M.Bobur nomidagi axborot-kutubxona markazida o'tkazilgan yosh shoir Muhammadsodiq Sardorbekovning ilk ijodiy kechasi haqida so'z yuritiladi. Tadbir davomida shoirning hayot, muhabbat, ruhiy kechinmalar, orzu-umidlar va zamonaviy jamiyatga munosabatini aks ettirgan she'rlari tinglovchilarga taqdim etildi. Ijodiy kecha 6 ta mavzuviy blok asosida tashkil etilgan bo'lib, u shoirning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va badiiy qarashlarini yorqin namoyon qildi. Shuningdek, tadbir yoshlar uchun ilhom manbai va ijodiy rivojlanishga turtki bo'lgan muhim madaniy hodisa sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** poeziya, ijodiy kecha, yosh shoir, Muhammadsodiq Sardorbekov, she'riyat, axborot-kutubxona markazi, badiiy ijod, ruhiy kechinmalar, zamonaviy she'riyat, kitobxonlik, madaniy tadbir, ilhom, ijodiy rivojlanish

Поэзия издревна тянула к себе душу человека. Она вносила и вносит в его жизнь силу, которая способна внести необыкновенные эмоции, преобразить окружающий мир. Да, как сказано мудрецами, поэтическое слово – это ТВОРЧЕСКОЕ слово, способное вызвать возвышенные чувства, изменить в лучшую сторону образ мышления. Читая

стихи, поэмы и другие формы стихотворных произведений, мы открываем мотивы поступков героев, их мысли и чувства, которые заставляют нас задуматься вместе с ними об их поступках, осудить или защитить их.

Вот и сегодня, присутствуя на творческом вечере начинающего поэта – читателя андижанского областного информационно

– библиотечного центра имени Бабура Мухаммадсодика Сардорбекова, слушатели, конечно же, ощутили всплеск чувств, переживаний, радость и потрясение. Потому что тема представленных стихов Мухаммадсодика отражала надежды, разочарования, взлеты и падения, депрессию и обретение веры в лучшее. Его первые поэтические творения это внутреннее свободное побуждение, где есть страдания, протесты, мечтание о будущем.



*Не зря слова поэтов осеняют,  
не зря, когда звучат их голоса,  
у мальчиков и девочек сияют  
восторгом и неведеньем глаза.*

Эти строки из стихотворения Беллы Ахмадуллиной вполне соответствовали и состоянию участников, да и самого начинающего поэта, главного героя творческого вечера.



*О друзья, лишь поэзия прежде, чем вы,  
прежде времени, прежде меня самого,  
прежде первой любви, прежде первой травы,  
прежде первого снега и прежде всего.*

Опять таки, вспоминается Белла Ахмадулина, потому что именно таков был посыл Мухаммадсодика аудитории, всем своим настоящим и потенциальным читателям.

Да, поэзия - это его жизнь, чувствуется, что поэзия идёт бок о бок с каждым его словом, с каждым его поступком, где то приносит радость, а где то эта жизнь разочаровывает и он об этом пишет:

*Романтику сменили алгоритмы,  
Поэзия осталась без пера.  
Любовь — процесс, оформленный в цифру,  
А вера — просто галочка с утра.*

В стихах отражается весь спектр его чувств, познания современной жизни и его естественного желания обрести счастье, душевный покой.

*Кто я такой, чтоб судьбу предречь?  
Никто не знает небесный ход.*

*Вдруг встретимся мы, когда сможем сжечь  
Все свои страхи и прежний лёд.*

Мухаммадсодик построил свой творческий вечер в 6-ти блоках: 1) Жизнь! / Как же круто быть живым, 2) Эмпатия, 3) Мир, 4) Депрессия, 5) Луна и 6) Письмо к женщине. круто быть живым, 2) Эмпатия, 3) Мир, 4) Депрессия, 5) Луна и 6) Письмо к женщине.



Структура вечера отражала его видение жизни, направление творчества, душевное настроение и понимаешь, что поэзия в его жизни стоит выше обыденной жизни. Это просматривается и в подборе его авторских стихов, а также включенных в программу вечера стихов любимого поэта С.Есенина.



Хочется отметить мастерское исполнение стихов, да и представленные авторские видеоролики доказывали, что Мухаммадсодик не только талантливый поэт, пусть пока не известный широкой публике, ведь ему всего 18 лет и у него все впереди, но он к тому же обладает прекрасными актерскими данными. Одним словом, мы все присутствовали на спектакле одного актера.



Авторский вечер – это его первое представление своего поэтического творчества публике, которым его стихи напомнили, что всё хорошо, хотя бы потому, что мы живы и у нас есть возможность проявить себя в этом

мире. И не было ни одного равнодушного зрителя, когда с большим вдохновением Мухаммадсодик читал свое стихотворение «Как круто быть живым»:

Как же круто быть живым  
Верить в чудо, не зная причин,  
Зажигать себя изнутри  
Вопреки мнениям чужим

Среди гостей были преподаватели русского языка области, учащиеся школ, для которых участие в данном творческом вечере стало мастер – классом и мотивацией к развитию своих творческих способностей и социализации.

Организаторами вечера - областным информационно библиотечным центром и Русским и Армянским культурными центрами - по итогам были вручены Грамоты и сувениры за активное участие в массово – культурных мероприятиях, за продвижение книги и чтения, за воспитание читательского вкуса, а также за высокое авторское и исполнительское мастерство.

И главное, со стороны зрителей ему были высказаны искренние пожелания творческого успеха и признания читателей.





**UMIDA KADIROVA**

Z.M.Bobur nomidagi  
Andijon viloyati  
axborot-kutubxona markazi,  
abonement sektori mudiri

Hozirgi davrda mutolaaning o'rnini shu kadar muhimki, turli axborotlarni qabul qilish, ularni taxlil etish, kerakli jihatlardan samarali foydalanish alohida mahorat talab etadi. Mutolaa jaryonida o'quvchining olgan bilimlari va ko'nikmasi uning xotirasida mujassamlashadi. Kitob mutolaasi dunyoqarashni kengaytirish tafakkurni o'tkirlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. Kitob mutolaa qilish insonni nafaqat fikrini teran, irodasini mustahkam qiladi, zakovat xususiyatlari bilan birga ahloqiy ma'naviy-ruhiy fazilatlarini ham shakllantiradi, etiqod va maqsadga intilish sifatlarini tarkib toptirishga ham xizmat qiladi. Kishida mafkuraviy immunitet, oq-qorani ajratish, fikrlash tarzi, voqea xodisalarga nisbatan nuqtayi nazar, hayotiy pozitsiyani shakllanishida tafakkur jarayonining tarkib topishida kitobxonlikning aloxida o'rnini bor.

Hozirgi kunda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## O'ZBEKISTON KITOBXONLAR YURTI

“2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 72-maqsadida aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarishga qaratilganligi bu yilgi “Kitobsevar millat” shiori ostida V-Respublika “Kitobxonlik haftaligi” ning o'zgacha ruhda o'tkazilishiga turtki bo'ldi.

Mazkur haftalik respublika aholisini, yosh avlodning bilim olishi, intellektual salohiyatini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kitobning roli va ahamiyatini kuchaytirish bilan birgalikda o'zbek adabiyotining yetuk namunalarini xorijiy tillarga hamda jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha erishilgan yutuqlar bilan tanishtirish bo'yicha tadbirlar seminarlar, uchrashuvlar suhbatlar o'tkazildi.

Men mazkur kutubxonaning doimiy a'zosi-man, shuning uchun tez-tez kelib turaman. Bu yerda kitobxonlar uchun barcha sharoitlar

yaratilgan. – deydi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi Yakubova Marjona

– Maktabimiz kutubxonasidan yo‘q kitoblarni shu yerdan topaman. Bunda menga yo‘nalishlar bo‘yicha kutubxonachi opalarim yordam beradi. Men ham bu yilgi “Kitobxonlik haftaligi”da ishtirok etdim. Albatta, haftalik doirasida yangi nashrdan chiqqan kitoblar bilan tanishdim.

Bugungi suhbatimizda “Kitobxonlik haftaligi” ishtirokchilari va faol kitobxonlarning fikri bilan o‘rtoqlashamiz.



*Kitob mutolaasi sizning hayotingiz uchun qay darajada o‘rinli?*

**YAKUBOVA MARJONA:** Kitob bu mening ichki olamimga ochilgan eshik, sukunatda suhbatdoshim va yolg‘izlikda hamrohim. Mutolaa huddi tafakkurim qanotidek menga fikrlashni hamda sabrni o‘rgatadi. Har bir o‘qigan asarim hayotimga bir dona nur qo‘shadi. Ayniqsa she‘riyatni o‘qir ekanman, so‘zlar sehriga o‘ralib, yuragimda yangi ilhom g‘unchalari unib chiqqandek bo‘ladi. Men uchun mutolaa hayotimning eng go‘zal maktabi

*Aytingchi necha yoshdan kitob mutolaasiga kirishgansiz? Kitob o‘qishga sizga kim yoki nima turtki bo‘lgan?*

Kitoblar bilan birinchi tanishuvim bolalik faslimdayoq boshlangan. Esimda, 8-9 yosh

paytimda onam menga kutubxonadan har hil kitoblar olib kelib berardi: “Kichkina shahzoda”, “Gulliverning sarguzashtlari”, “Aka-uka Grimm ertaklari”, “Shum bola”. Men asosan shu asarlar bilan kitoblar olamiga kirib kelganman.

*Ilk mutolaani boshlamoqchi bo‘lgan tengdoshlaringizga qaysi kitobni o‘qishni tavsiya etgan bo‘lardingiz?*

Albatta, har bir inson ilk marotaba kutubxonaga qadam qo‘yar ekan, o‘zi yoqtirgan mavzu bo‘yicha kitob izlaydi. Men kitob o‘qishni endi boshlamoqch bo‘lgan tengdoshlarimga eng avvalo yurakka yaqin asarlarni tavsiya qilgan bo‘lardim. Masalan: Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulomning bolalar uchun yozgan hikoyalari, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” kitobi yoki Ernest Hemenguyey asarlari. Ular ham quvnoq, ham chuqur ma‘noli.

*Ayni paytda “Kitobsevar millat” haqida nima deya olasiz? Biz kitobsevar millat bo‘la olamizmi? Hozirgi kunda kitobxonlik darajasi qanday? Bu haqida fikringiz?*

Menimcha bu yo‘lda allaqachon katta qadamlarga ega bo‘ldik, lekin hali oldimizda bundan ham ulkan va mas‘uliyatli yo‘l bor. Kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortib boryotgani quvonarli hol. Ayniqsa, maktablar, kutubxonalar, ijodiy uchrashuvlar va turli tanlovlar biz, yoshlarni mutolaaga yaqinlashtiryapdi. Shu bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar asrida ayrim tengdoshlarimiz telefonga, ijtimoiy tarmoqlarga kundan – kunga bog‘lanib qolmoqda. Agarda o‘zimiz kitob o‘qib, har kuni hech bo‘lmasa bir kishiga mutolaaga bo‘lgan qiziqish va mehrni yuqtira olsak, “Kitobsevar millat” degan nomga asta-sekin erisha olamiz.

*Aytingchi har yili an‘anaga aylangan aprel oyida bo‘lib o‘tadigan “Kitobxonlik haftaligi” nima maqsadda o‘tkazilishidan xabaringiz bormi?*

Albatta, “Kitobxonlik haftaligi” – bu faqatgina tadbir emas, bubir ruh, bir g‘oya, bir ma‘naviy uyg‘onishdir. Har yili aprel oyida o‘tkaziladigan ushbu haftalikning asosiy maqsadi – yosh

yosh avlodni kitobga oshno qilish, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va eng muhimi ilmga bo'lgan muhabbatni uyg'otishdir. Bu haftalik davomida o'tkaziladigan kitob yarmarkalari, ijodiy uchrashuvlar, tanlovlar va bahs-munozaralar orqali yoshlar kitobning qadrini, yozuvchining mehnatini chuqurroq anglay boshlaydi. Aynan shu haftalik menga ham yangi asarlar bilan tanishish, ulardan o'zimga kerakli xulosalar va ilhom olish imkonini beradi.

*“Kitobxonlik haftaligi”da yosh avlodning ma’naviy hamda intellektual salohiyatini kuchaytirishdagi qanday yangiliklar bilan tanishdingiz?*

“Kitobxonlik haftaligi” yildan-yilga yanada qiziqarli, zamonaviy va yoshlar qalbiga yaqin shakllarda o'tkazilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda ushbu haftalik doirasida o'quvchilar va talabalar o'rtasida “Eng kitobxon o'quvchi», “Ijodkor kitobxon” kabi tanlovlar, sahna ko'rinishlari hamda yozuvchilar bilan jonli muloqotlar tashkil etilishi meni quvontiradi. Bu yangiliklar yoshlarning nafaqat o'qishga, balki mustaqil fikrlashga, so'z boyligini oshirishga, nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, audio kitoblar, elektron mutolaa platformalari va mobil ilovalarning paydo bo'lishi ham kitobxonlikka e'tibor yanada o'sganligidan darak beradi. Menimcha, bu haftalik nafaqat kitobni targ'ib qiladi, balki yosh qalblarda orzu va intilishga zaminyaratadi.

*Haftalik doirasidagi qaysi tadbirlarda ishtirok etdingiz? Tadbirdan xulosangiz?*

Men bu haftalik doirasida o'tkazilgan yozuvchilar bilan uchrashuvlar va ochiq muloqotlarda faol ishtirok etdim. Ushbu haftalik menga bir narsani yana bir bor isbotladi: kitobni sevgan, fikrini erkin bildirgan, ijod qilgan yoshlar – millatning yorqin kelajagi. Shuning uchun bu kabi tadbirlar doimiy bo'lishi kerak, deb hisoblayman.

*Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha qanday takliflarni bera olasiz?*

Fikrimcha, kitobxonlikni rivojlantirish uchun har bir maktabda o'quvchilar orasida “Kitob do'sti” harakati tashkil etilsa, juda yaxshi natija beradi. Bu orqali yoshlar bir-biriga o'qigan kitoblarini tavsiya qiladi, o'zaro bahs-munozaralar o'tkazadi va kitobni sovg'a qilish madaniyati shakllanadi. Yana bir taklifim – har o'ning so'ngini “Umumiy mutolaa” kuni deb e'lon qilish. Yoshlar o'sha kuni bir oy davomida o'qigan kitobini tahlil ni o'tkazsin. Bu orqaali kitob o'qish ko'pchilik orasida sekin-asta odatga aylanadi.

*“Kelajak kutubxonalari” sizning tasavvuringizda?*

Men kelajakda kutubxonalarni nafaqat binolar ichida, balki tabiat quchog'idaham tasavvur qilaman. Masalan, bog'lar, yashil hiyobonlar yoki suvbo'yidagi sokin joylarda ochiq osmon ostidagi ekologik kutubxonalar bo'lsa – bu ajoyib bo'lardi. Quyosh nuri ostida, qushlar sayrashi eshitilib turadigan joylarda mutolaa qilish qalbga ikki karra ilhom bag'ishlaydi. Yog'ochdan qurilgan, atrof-muhitga moslashtirilgan ochiq maydonchalarda kitob o'qish, o'quvchilar bilan adabiy suhbatlar qilish – bu nafaqat mutolaaga, balki tabiatga bo'lgan muhabbatni ham oshiradi. Men kelajak kutubxonalarni ana shunday yashil, jimjit, qulay va ilhombaxsh etuvchi manzillarda tasavvur qilaman.

*Kitob o'qigan bilan o'qimagan odamning farqini aytib bering?*

Kitob o'qigan inson – bu o'zini, hayotni va borliqni anglashga intilayotgan ruhdur. U har bir satrda haqiqatni izlaydi, har bir sahifada hayotning yangi rangini kashf etadi. U savollar beradi, izlanadi, shubhalanadi, o'ylaydi va bu orqali o'zini topadi. Kitob o'qimagan kishi esa go'yoki derazalari yopiq, nurlari so'nib turgan xonadek. Uning ichki dunyosi jimjit, fikrlari bir xil yo'nalishda aylanib yuradi. U boshqalarning fikri bilan yashaydi, lekin o'zi mustaqil fikr olmaydi. Chunki kitob inson tafakkurining o'ziga xos kalitidir. Menimcha, kitob o'qigan odam va o'qimagan odam o'rtasidagi farq

shunday: biri hayotga savol bilan qaraydi, ikkinchisi esa faqat javob kutadi. Biri hayotga ohang baxsh etadi, ikkinchisi esa jim o'quvchi bo'lib qoladi. Kitob – inson ruhining ko'zgusi. O'qigan kishi bu ko'zguda o'zini, o'tmishini va kelajagini ko'ra oladi.

Haftalik doirasida “Mehr kutubxonasi” aksiyasi tashkil etildi. Bu aksiyada ko'plab tashkilotlar hamda kitobxonlar ishtirok etdilar. Ular ko'plab qiziqarli adabiyotlarni sovg'a qildilar. Ushbu kitoblar sahovat uylari hamda kutubxonaga uzoq bo'lgan kitobsevarlarga taqdim etildi.



*“Mehr kutubxonasi” ijtimoiy loyihasi amalga oshirildi. Bu haqida fikringiz?*

“Mehr kutubxonasi” – bu atama menga darhol ikki so'zni eslatadi: kitob va qalb. Bu ikki ne'mat birlashgan joyda doimo ezgulik unadi. Chunki kitobni ulashish nafaqat bilimni, balki qalb taftini ulashishdir. Kimdir o'qib chiqqan bir kitob, boshqasi uchun hayotni o'zgartirib yuboruvchi kalitga aylanadi. Ayniqsa, u yurakdan berilgan bo'lsa, endi oddiy sahifalar emas, mehr bilan yozilgan maktubdir. Men bunday kutubxonalarni odamlar bir-biriga so'z orqali mehr ulashadigan maydon deb bilaman. Har bir kitob – kimningdir ichki dunyosidan otilib chiqqan yorug'lik, va o'sha yorug'lik boshqalarga yo'l ko'rsatadi. Shunday joylar bor ekanki, u yerga kirgan odam biroz tin oladi, o'ylanadi so'ng biroz

yaxshilanadi. “Mehr kutubxonasi” ham ana shunday loyihalardan biridir.

Yana bir kitobxonimizni so'zlarini tinglaymiz



Muhammadjonov Abdurahmon  
ADTI 4- kurs talabasi

*Kitob mutolaasi sizning hayotingiz uchun qay darajada o'rinli?*

Muhammadjonov Abdurahmon: Darvoqe kitob oqish va kitobxon bolish hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy hayotda ham haligacha o'z o'rniga va o'z kitobxonlariga. 7 yoshdan 70 yoshgacha deyilganidek kitob o'qish ham yosh tanlamaydi. Hozirgi zamonaviy hayotda yangiliklar va bilimlarni telefon, televizor yoki shu kabi ommaviy axborot vositalari orqali olish imkoni bo'lsada lekin kutubxonaga kelib kitob o'qishning o'ziga xosligi bor. Rasmi kitoblar, ertaklar yosh bolalarni etiborini tortadi va o'z dunyosiga olib boradi. Badiy asarlar va hikoyalar esa yoshlar orasida ommalashgan. Sheriyat esa asosan yoshi kattalar orasida o'qib kelinadi. Kitob o'qish orqali fikrlarimiz chuqurlashib boradi. Ichki dunyo shakllanadi, rivojlanadi. Ko'pgina va turli kitoblarni o'qiydigan odamlarning fikrlashi va dunyo qarashi boshqalardan farq qilishi doim sezilib turadi. O'tmishdagi ulug' bobolarimiz ham yoshligidan kitob o'qish orqali dunyo qarashini kengaytirgan, o'qish va o'rganish orqali hozirgi zamonaviy hayotning asosi bo'lgan kashfiyotlarni qilishgan.

Umuman olganda hozirgi jadallashgan hayotimizda ham kitobning o'рни beqiyos.

*Aytingchi necha yoshdan kitob mutolaasiga kirishgansiz? Kitob o'qishga sizga kim yoki nima turtki bo'lgan?*

Men yoshligimdan rasmi kitoblarga qiziqardim. Maktabga borishdan oldin rasmi jurnallar ko'rardim va o'qishga hohlardim. O'sha paytda boshlangan deya olaman. Maktabga borgach shaxsan o'zimga kitoblar berishgan. Keyinchalik 5-sinfda adabiyot fani kira boshlagan, oshanda badiy asarlar o'qishni boshlaganman. Albatta kitob mutolasiga avval rasmi jurnallar sabab bo'lgan. Keyinchalik adabiyot ustozim aytib bergan hikoyalar. Hozirda ham kutubxonaga tez tez tashrif buyuraman va kitob mutola qilaman.

*Aytingchi har yili an'anaga aylangan aprel oyida bo'lib o'tadigan "Kitobxonlik haftaligi" nima maqsadda o'tkazilishidan xabaringiz bormi?*

Albatta yosh avlodni kitobxonlikka qiziqtirish, mutolaaga chorlash yangi nashrlar bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Bilasizmi, bu yilgi "Kitobxonlik haftaligi" ga o'zgacha ruxda tayyorgarlik ko'rilganiga amin bo'ldim. Boisi bu jarayonlarda o'zim ham kutubxonachi opalarga yordam berdim. Dizayn va bezaklarni kitobxonlar bilan birgalikda bajarilishi ko'nglimni zavqshavqqa to'ldirgan bo'lsa, "Mehr kutubxonasi loyixasi", turli tadbirlar barcha kitobsevarlarni yana bir bor adabiyotlarga bo'lgan mehrini uyg'ota oldi deb o'ylayman.

Yana bir suhbatdoshimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi yetakchi mutaxassisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi iste'dodli ijodkor Vosit AHMAD bo'ladilar. "Kitobxonlik haftaligi" bo'yicha Vosid Ahmadni ham suhbatga chorladik.

*Ijodkor sifatida adabiyotlar siz uchun qanchalik muhim?*

Kechirasiz-u, bu savol och qolgan odamga "taom yeyishga ta'bing qanday", deyishga o'hshaydi. Ochig'ini aytganda, kitob,

ayniqsa, badiiy adabiyotlar ijodkorning noni, harakatlantiruvchi kuchi, ilhom beruvchi manba, qolaversa, yozishga undovchi turtkidir.



Endi fikrlarimni asoslab qo'ysam. Avvalo, bir masalaga oydinlik kiritib olsak. Men avval yozganmanmi yoki kitob o'qiganmanmi?! Albatta, avval kitob o'qiganman.

Demak, ayonki, kitob ijodkorni ilhomlantiruvchi manba ekan. Endi bu holatning yaqin davr tarixiga nazar tashlasak. Aslida, oilamizda men emas, akam Abduvohid (Alloh rahmat qilsin) yozuvchi bo'lib ketishi kerak edi. Chunki akam maktabda o'qib yurgan kezlari chunonam ko'p kitob yig'a boshladiki, ko'plab badiiy kitoblarni o'qib tashladiki, men ham bundan zavqlanib kitob yig'ishga va mutolaa qilishga ruju qo'ydim. Bu mashg'ulotga shunday berilib ketdimki, akam "taslim" bo'ldi. Bu mashg'ulotni menga "qo'shqo'llab topshirdi". Tinmay o'qish (bu borada katta kamchilikka yo'l ham qo'ydim. Tanlab o'qimagan va ko'pincha uqmay o'qigan kezlirim bo'ldi) "o'z ishini qildi". Yozish dardi tinchlik bermay qo'ydi. Telegramdagi kamchiligu illatlar bu istakni yanada kuchaytirdi. Shu tariqa yozuvchilik mening ham chekinga tushdi.

*Ayni paytda "Kitobsevar millat" haqida nima deya olasiz? Biz kitobsevar millat bo'la olamizmi? Hozirgi kunda kitobxonlik darajasi qanday? Bu haqida fikringiz?*

Albatta, bo‘lamiz va bo‘lyapmiz. Axir ikki yozuvda bosilayotgan shuncha kitoblar qayoqqa ketyapdi?! Albatta, o‘z iste‘molchisigada. Mana, “Kitobxonlik tanlovlari”ni olib ko‘raylik. Qatnashuvchilarning hammasi ham mashina ishqida tanlovga qatnashyapdi deb o‘ylaysizmi?! Yo‘q, albatta, ba‘zilarida dastlab shunday istak tug‘ilar. Lekin keyingi, undan-da, lazizroq- mutolaa ishq ishtirokchini rom etib qo‘yadiki, bu holatni faqat kitobxon kishigina tasavvur qila oladi. “Dolzarb 90 kunlik” munosabati bilan joylardagi tadbirlarda qatnashmoqdamiz. Bolalar oromgohida ishtirok etish jarayonida faol bolalarga kitoblar sovg‘a qilmoqdaman. Savol berishdan oldin sovg‘asiga kitob bor, deyishimni bilaman, qiy-chuv qilishib javob berishga shoshilishadi. Bu kitobsevarlik bo‘lmay nima?! Uning o‘rniga shirinlik yoki biror jihozni taklif qilsam, bunchalik ta‘sir kuchini ko‘rmasdim. Mana, ishlayotgan joyingiz axborot-kutubxona markazini olib ko‘ring. Bundan o‘n yil avval qanday edi?! Kamdankam odam oralardi. Nima, unda talaba degani yo‘qmidi. Endi qarang, zallarni qo‘ya turing, yo‘laklar ham o‘quvchilar bilan tirband. Demak, aytish mumkinki, bugungi kunda kitobxonlik darajasi ko‘ngildagidek.

*Har yili o‘tkaziladigan “Kitobxonlik haftaligi” ni o‘tkazishdan maqsad nima deb o‘ylaysiz?*

Kitobxonlik haftaliklarini o‘tkazishdan maqsad, aholi orasida kitob targ‘ibotini keng qamrovda olib borish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, kitob chop etish va sotuvini rivojlantirish, yozuvchi-shoirlarning yangi kitoblari taqdimotlarini o‘tkazish orqali xalqimizning adabiyotga muhabbatini oshirishdan iboratdir. Aholi orasida kitobxonlar ko‘paygan sari johillar kamayadi. Natijada esa, jinoyatchi kimsalar soni ham qisqaradi.

Haqiqiy badiiy, ma‘naviy-ma‘rifiy kitoblar shunchalar qudratga egaki, ulardan ta‘lim olgan aholi orasida korrupsiya payi qirqiladi, zinokor-u, ichkilikbozlar safi ozayadi. Oilalarda ajralishlar darajasi keskin pasayadi. Zero, hukumatimizning pirovard maqsadi ham shudir.

Yurtimiz o‘g‘lonlari ichida bilimli, ma‘rifatli yigit-qizlar ko‘paygan sari uchinchi renessans poydevoriga muhrlanadigan yangi avlod vakillari soni ortadi. Kitobxonlik haftaliklarining roli shunday katta ahamiyatga ega.

*“Kitobxonlik haftaligi” da yosh avlodning ma‘naviy hamda intellektual salohiyatini kuchaytirishdagi qanday yangiliklar bilan tanishdingiz?*

Avvalo, kutubxonaga ma‘naviy va intellektual salohiyati shakllanayotgan yosh avlod vakili qadam ranjida qiladi. Bu yerdagi ma‘naviy bisot vositasida uning saviya va salohiyati yangi bosqichga ko‘tariladi, kuchayib boradi. Kitobxonlik haftaliklari bois ma‘naviyat -ma‘rifatning barcha jabhalaridagi yangi iste‘dodlarni kashf etamiz. Yosh avlod vakillari orasida iqtidorli qalamkashlar, san‘at qaldirg‘ochlari, ilm-fan oshiqlari ham uchrab turadi. O‘tgan haftaliklarning birida ancha tafakkurli bir yosh yigitni uchratgandim. U menga kitob va kitobxon bo‘yicha kuzatishlar olib borayotgani, uni kitob qilish uchun maslahat so‘ragani yodimda. Inchunkun, kitobxonlik haftaliklari navqiron iste‘dodlarni kashf etishda o‘ziga xos bir muhit hisoblanadi.

*Haftalik doirasidagi qaysi tadbirlarda ishtirok etdingiz? Tadbirdan xulosangiz?*

Har gal bo‘ladigan kitobxonlik haftaliklari kitobxonlar, ayniqsa, ijod ahli uchun haqiqiy bayramga aylanib ketadi. Shaxsan men haftaliklarning deyarli barcha tadbirlarida ishtirok etishga harakat qilaman. Jumladan, taniqli ijodkorlar bilan uchrashuv, yangi kitoblar taqdimoti, yosh kitobxonlar bilan davra suhbatlari, kitobxonlar tanlovi, insholar ko‘rigi, jajji kitobxonlar bilan uchrashuv singari tadbirlarida qatnashganman. Bunday tadbirlarni nafaqat kutubxona markazida, shuningdek, o‘quv muassasalarida, korxon va tashkilotlarda ham kitobxonlik haftaligi doirasida davom ettirgan paytlarimiz bo‘lgan.



**МАМАТКУЛОВ АСАДУЛЛОХ,**

студент 2 курса Андижанского  
Государственного Университета,  
факультет истории и  
социальных наук

## *Край мой*

*Мой край родной, любимый и желанный,  
Приют для сердца в тревожные часы.  
Лишь здесь, где вечер падает туманный,  
Я слышу отклик деревенской красоты.*

*Люблю твои раздолья и овраги,  
Где ветер травы гладит по росе,  
Где соловей как вестник Божьей саги  
Поёт, как мёд, растаявший в косе.*

*И стоит лишь раз увидеть ту зарю,  
Что красками небесными играет...  
За этот край — я Бога слёзно молю,  
Пусть вечно Он его оберегает.*

*Ах, как люблю я твой посёлок и эти луга,  
Где свет апрельский в сердце отзывается.  
Ты мне дороже золота и шелка,  
Ты — та весна, что в памяти скитается.*

*Ах, как мне дороги твои чинары и ивы,  
Стоящие молчаливо у тихого пруда.  
Где бы я ни был, в тех краях небывалых,  
Всё к тебе зовёт моя душа,*

*Люблю я свист косы в утреннюю зорьку,  
Где всё вокруг спокойно, без забот.  
Там тихий свет струится вдоль посёлка,  
Там сердце моё до сих пор живёт*

## «ANDIJONLIK VITSE-ADMIRAL»

Aleksandr Vasilyevich Kuzmin  
(1909–1965)



**Аннотация:** Александр Васильевич Кузьмин (1909–1965) — уроженец города Андижана Туркестанского края (ныне Республика Узбекистан) советский вице-адмирал, участник Великой Отечественной войны. Командовал бригадами торпедных катеров на Тихоокеанском и Северном флотах, успешно проводил боевые операции и был награжден орденами. После войны занимал руководящие должности, работал военным советником за рубежом и внёс вклад в развитие военно-морских сил СССР.

Aleksandr Vasilyevich Kuzmin 1909-yil 5-sentabrda Andijon shahrida tugʻilgan. Oʻrta maktabni tamomlagach, M.V. Frunze nomidagi Harbiy-dengiz bilim yurtiga oʻqishga kiradi va 1925-yil oktabridan kursant boʻladi. 1931-yil oktabrda bilim yurtini bitirgach, Qora dengiz flotining torpeda katerlari brigadasiga yuboriladi. U yerda oʻquv otryadi vzvod komandiri, 1932-yil yanvaridan torpeda kateri komandiri, sentabrdan esa torpeda katerlari zvenosi komandiri lavozimlarida xizmat qiladi.

Tinch okeani va Ulugʻ Vatan urushi yillari bir yildan soʻng, 1933-yil noyabrda Tinch okeani flotining torpeda katerlari brigadasiga oʻtkaziladi.

### U yerda quyidagi lavozimlarni egallaydi:

- Torpeda katerlari otryadi minyorchisi;
- 1932-yil iyuldan — torpeda katerlari zvenosi komandiri;
- 1933-yil oktabrdan — 2-otryad komandiri;
- 1937-yil dekabrda — torpeda katerlari divizioni komandiri;
- 1938-yil fevraldan — brigada shtab boshligʻi;
- 1939-yil noyabrdan — brigada komandiri.

Ulugʻ Vatan urushini aynan shu lavozimda kutib oldi. Urush davrida brigadaning asosiy vazifasi Tatar boʻgʻozi va Oxota dengizi hududlarida qirgʻoq mudofaasi va dengiz kommunikatsiyalarini himoya qilish edi. Vazifalarni muvaffaqiyatli bajargani uchun 2-rang kapitani Kuzmin Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi. 1943-yil oktabrda tajribali mutaxassis sifatida Qora dengiz flotiga yuboriladi va u yerda Kertch operatsiyasida ishtirok etadi.

### Shimoliy flotdagi xizmati

1944-yil fevralidan Shimoliy flotning torpeda katerlari brigadasi komandiri etib tayinlanadi. Yangi bazani jihozlash va Amerika texnikalarini («Xiggins» va «Vosper» katerlari) oʻzlashtirish qiyinchiliklariga qaramay, u qisqa vaqt ichida dushmanga katta talafot yetkazishga erishadi.

1944-yil iyulga kelib: Uning qoʻmondonligidagi brigada dushmanning umumiy suv sigʻimi 41 000 tonna boʻlgan 19 ta kemasini (shu jumladan 6 ta transport, 1 ta tanker, 7 ta qorovul kemasi va boshqalar) choʻktiradi. Buning uchun 1-rang kapitani Kuzmin Qizil bayroq ordeni bilan taqdirlanadi.



1944-yil avgust: Ikki muvaffaqiyatli hujum natijasida dushmanning 4 ta minonosetsi, 5 ta transporti va boshqa kemalari yo'q qilinadi. Kuzmin 2-darajali Ushakov ordeni bilan taqdirlanadi.

1944-yil oktabr: Brigada Petsamo-Kirkenes operatsiyasida qatnashib, dengiz desantlarini tushirish va himoya qilishni muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Eng muhimi, barcha operatsiyalar davomida brigada birorta ham o'z katerini yo'qotmaydi. Buning uchun u ikkinchi bor Qizil Bayroq ordeni va Norvegiyaning «Ozodlik xochi» bilan taqdirlanadi.

### Urushdan keyingi faoliyati

1945-yil aprelda Boltiq floti brigada komandiri etib tayinlanadi. Urush davomida Oliy Bosh Qo'mondonning buyruqlarida uch marta shaxsan tilga olingan (minnatdorchilik bildirilgan).

### Urushdan keyin:

**1.Yugoslaviya:** 1947-yilda Yugoslaviya armiyasi Harbiy-dengiz kuchlarida katta maslahatchi.

**2.Kronshtadt:** 1948-yildan Kronshtadt harbiy-dengiz bazasi komandiri.

**3.Xitoy:** 1949-yildan kontr-admiral unvonida Xitoy Xalq Respublikasida Hukumat maslahatchisi. Xitoy dengiz kuchlarini tashkil etishdagi xizmatlari yuqori baholangan.

**4.Kaspiy:** 1951-yildan Kaspiy flotiliyasi qo'mondoni. Ozarbayjon SSR Oliy Soveti deputati (1959–1962).

**5.Sevastopol:** 1960-yildan P.S. Naximov nomidagi Qora dengiz Oliy harbiy-dengiz bilim yurti boshlig'i.

1961-yil 9-mayda unga vitse-admiral harbiy unvoni berilgan. Aleksandr Vasilyevich Kuzmin 1965-yil 13-noyabrda vafot etgan va Sevastopoldagi Kommunarlar qabristoniga dafn etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кузьмин А. В. *Торпедные катера*. – Москва : Государственное военное издательство НКО СССР, 1937. — 48 с.;

2. Кузьмин А. В. *Записки по истории торпедных катеров*. – Москва : Военно-морское издательство НКВМФ СССР, 1939. — 135 с.;

3. Кузьмин А. В. *Предисловие // Золоторубов А. М., Шнайдер Я. Ф. Сказание о последнем бое*. – Москва, 1965;

4. Кузьмин А. В. *В прибрежных водах*. — Москва : Военное издательство, 1967. — 288 с. — (Военные мемуары); Издательство:

5. Кузьмин А. В. *Операция торпедных катеров Северного флота на коммуникациях противника // Мор. сб. – 1944. – № 11-12. – С. 22-40;*

6. Кузьмин А. В. *Овладевать искусством атаки // Мор. сб. – 1985. – № 4. – С. 52-55.*

7. Кузьмин Александр Васильевич : [электронный ресурс] [https://ru.ruwiki.ru/wiki/Кузьмин,\\_Александр\\_Васильевич](https://ru.ruwiki.ru/wiki/Кузьмин,_Александр_Васильевич) , доступ свободный



# MUALLIFLAR DIQQATIGA!

## “BOBUR KUTUBXONASI” JURNALIDA MAQOLALARNI CHOP ETISH SHARTLARI

Chop etish uchun yuborilgan material yangi va boshqa nashrlarda chop etilmagan bo'lishi hamda jurnal yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Tahririyat material jurnal yo'nalishiga mos kelishi to'g'risida mustaqil qaror chiqaradi va chop etishni rad qilish sabablarini tushuntirmaslik huquqiga ega.

### **Mualliflar to'g'risida ma'lumotlar:**

Ismi, familiyasi, otasining ismi, asosiy ish (o'qish) joyi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi;

Asosiy ish (o'qish) joyining pochta manzili; telefon raqamlari va elektron pochta.

### **Maqolaning tuzilishi:**

**Nomi:** o'zbek, rus tillarida 8 so'zdan ko'p bo'lmasligi.

### **Maqola matni:**

**Kirish:** masala (muammo)ning qo'yilishi, dolzarbligi, maqsadi, maqolaning tuzilishini tushuntirish.

### **Maqolani sahifalashtirish**

**Shrift va hajmi:** MS word (.doc yoki .docx) formatida, Arial (11 pt.) shriftida, 1,15 interval bilan. Hajmi 2-8 sahifa oralig'ida yoki 3000 dan 20000 belgigacha bo'lishi lozim. Maqoladagi ma'lumotlar qaysi manbadan olinganligi (ssilka) ko'rsatilishi shart.

**Grafik, chizma va jadvallar:** Excel formatida, suratlar \*.jpg, \*.png formatida alohida faylda yuborilishi shart.



### **ПРИГЛАШАЕМ К СОТРУДНИЧЕСТВУ**

Нашим автором может стать любой человек, профессия или увлечение которого связаны с книгой, с библиотекой.

Если вы решили отправить нам материал для размещения в журнале, то, прежде всего, необходимо проверить соответствие его следующим пунктам:

Материал представляется на одном из языков: узбекском или русском.

Он должен содержать сведения об авторе: имя, отчество и фамилию, место жительства, должность и место работы, контакт (телефон / электронная почта).

Название статьи не должно состоять из более, чем 6 слов с предлогами.

Материал не должен иметь менее 2 и более 6 страниц и быть ранее опубликованным или представленным в другом СМИ.

При обнаружении нарушения данного условия, материал снимается с опубликования.

Файл с материалом должен быть представлен в формате документа Microsoft Word, при этом рисунки и таблицы размещаются в тексте после ссылок на них, т. е. вся информация должна быть в одном файле. Статьи и другие материалы, представленные в редакцию, не возвращаются.

Шрифт текста: Arial, размер шрифта 11, межстрочный интервал 1,15.

Все страницы должны быть пронумерованы, иллюстрации, графики и таблицы расположены в соответствующих местах в тексте.

Каждый рисунок, график, таблица должны быть дополнительно представлены отдельным файлом в формате: \*.jpg, \*.png.



# Kelgusi sonda: В следующем номере:



- ▶ Успех читательской общественности
- ▶ XXI-asr bibliografining vazifasi
- ▶ Muqaddas qadamjolar – milliy merosimiz
- ▶ Ilm afzalmi — davlat afzalmi
- ▶ “Yoshlar tarbiyasida kekxa avlodning o‘rni”
- ▶ Афганистан не сломал мою судьбу